

Farg'ona viloyati Quvasoy shahri
DAVLAT XIZMATLARI MARKAZI
tomonidan 2026 yil 19 martda
3164517 raqam bilan

«TASDIQLANGAN»
“Kvarts” aksiyadorlik jamiyati
aksiyadorlarining 2026 yil 27-fevraldagi
Umumiy yig'ilishi qarori bilan
(2026 yil 27-fevraldagi 1-sonli
bayonnoma)

RO'YXATGA OLINGAN:



“Kvarts” aksiyadorlik jamiyati Ustavi

(YANGI TAHRIR)

Quvasoy shahri – 2026yil.

Mundarija

I. UMUMIY QOIDALAR	3
II. JAMIYAT FAOLIYATINING SOHASI (ASOSIY YO‘NALISHLARI VA MAQSADI).....	5
III. JAMIYAT USTAV KAPITALINING MIQDORI.....	6
IV. JAMIYAT AKSIYALARINING TURLARI, ULARNING NOMINAL QIYMATI, HAR XIL TURDAGI AKSIYALARNING NISBATI, JAMIYATNING BOSHQA QIMMATLI QOG‘OZLARI.....	7
V. JAMIYAT AKSIYALARINI JOYLASHTIRISH TARTIBI VA SHARTLARI.....	8
VI. JAMIYAT AKSIYADORLARINING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI.....	9
VII. DIVIDENDLARNI TO‘LASH TARTIBI.....	11
VIII. JAMIYATNING ZAXIRA FONDINI VA BOSHQA FONDLARINI TASHKIL ETISH TARTIBI.....	12
IX. JAMIYAT BOSHQARUVINING TUZILMASI.....	12
X. JAMIYAT AKSIYADORLARINING UMUMIY YIG‘ILISHI.....	12
XI. JAMIYAT KUZATUV KENGASHI.....	19
XII. JAMIYATNING IJROIYA ORGANI.....	23
XIII. JAMIYAT KUZATUV KENGASHI A‘ZOLARINING, BOSHQARUV RAISING VA BOSHQARUV A‘ZOLARINING JAVOBGARLIGI.....	27
XIV. JAMIYAT KUZATUV KENGASHI A‘ZOLARINING HAMDA BOSHQARUV A‘ZOLARINING FIDUTSIAR MAJBURIYATLARI.....	28
XV. JAMIYATNING MOLIYA-XO‘JALIK FAOLIYATINI NAZORAT QILISH....	29
XVI. JAMIYATNING YILLIK HISOBOTLARINI TUZISH, TEKSHIRISH VA TASDIQLASH TARTIBI	29
XVII. JAMIYATNI QAYTA TASHKIL ETISH VA TUGATISH.....	30
XVIII. YAKUNIY QOIDALAR	30

I. UMUMIY QOIDALAR

1.1. Ushbu Ustav O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, 2022 yil 29 martdagi “Korporativ boshqaruv tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgarish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-760-son Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 8 apreldagi PF-101-son Farmoni, Vazirlar Mahkamasining “2021-2025 yillarda davlat ishtirokidagi korxonalarni boshqarish va isloh qilish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2021 yil 29 martdagi 166-son Qarori, Korporativ boshqaruv Kodeksi (Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatining samaradorligini oshirish va korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish komissiyasining 2015 yil 31 dekabrda 9-sonli majlis bayoni bilan tasdiqlangan) tavsiyalari va boshqa qonun hujjatlari asosida ishlab chiqilgan.

1.2. “Kvarts” aksiyadorlik jamiyati (bundan buyon – Jamiyat) O‘zbekiston Respublikasi Davlat mulkini boshqarish va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash davlat qo‘mitasining 1995 yil 31 yanvardagi 26-к-ПЮ sonli buyrug‘iga muvofiq davlat tasarrufidan chiqarish yo‘li bilan tashkil etilgan.

1.3. Jamiyat o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasining Fuqorolik kodeksi, “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni va boshqa me‘yoriy huquqiy hujjatlarga muvofiq olib boradi.

1.4. **Jamiyatning to‘liq nomi:**

o‘zbek tilida:

lotin yozuvida: “Kvarts” aksiyadorlik jamiyati;

kirill yozuvida: “Кварц” акциядорлик жамияти;

rus tilida: Акционерное общество “Кварц”;

ingliz tilida: “Kvarts” joint-stock company.

Jamiyatning qisqartirilgan nomi:

o‘zbek tilida:

lotin yozuvida: “Kvarts” AJ;

kirill yozuvida: “Кварц” АЖ;

rus tilida: АО “Кварц”;

ingliz tilida: “Kvarts” JSC.

1.5. Jamiyat davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan kundan e‘tiboran yuridik shaxs maqomiga ega bo‘ladi. Jamiyat cheklanmagan muddatga tuziladi.

1.6. Jamiyat yuridik shaxs bo‘lib, u o‘z mustaqil balansida hisobga olinadigan alohida mol-mulkka, shu jumladan o‘zining ustav fondiga berilgan mol-mulkka ega bo‘ladi, o‘z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarni olishi hamda amalga oshirishi, zimmasiga majburiyatlar olishi, sudda da‘vogar va javobgar bo‘lishi mumkin.

1.7. Jamiyat o‘zining firma nomi davlat tilida to‘liq yozilgan hamda joylashgan manzili ko‘rsatilgan yumoloq muhrga ega bo‘ladi.

Jamiyat o‘zining nomi yozilgan tamg‘a (shtamp) va blankalarga, o‘z logotipiga (timsoli), shuningdek belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazilgan tovar belgisiga hamda fuqorolik muomalasi ishtirokchilarining, tovarlarning, ishlarning va xizmatlarning xususiy alomatlarini aks ettiruvchi boshqa vositalarga ega bo‘lishga haqli.

1.8. Jamiyatning joylashgan yeri u davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan joyga ko‘ra belgilanadi.

Jamiyatning joylashgan yeri: O‘zbekiston Respublikasi, Farg‘ona viloyati, Quvasoy shahri, Mustaqillik ko‘chasi 2a uy;

Pochta manzili: indeks 150900.

Jamiyatning elektron pochta manzili: qvareznew@mail.ru

Jamiyatning rasmiy veb sayti: www.kvarts.uz

Jamiyat o‘zining joylashgan yeri (pochta manzili) va elektron pochta manzili o‘zgartirilishi to‘g‘risida yuridik shaxslarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organlarni yozma bildirish yo‘li bilan, aksiyadorlarni esa ommaviy axborot vositalarida e‘lon berish yo‘li bilan xabardor etishi shart.

1.9. Jamiyat O‘zbekiston Respublikasi hududida va uning tashqarisida bank hisobvaraqlarini ochishga haqli.

1.10. Jamiyat o‘z majburiyatlari yuzasidan o‘ziga tegishli barcha mol-mulk bilan javobgar bo‘ladi.

Aksiyadorlar Jamiyatning majburiyatlari yuzasidan javobgar bo‘lmaydi va uning faoliyati bilan bog‘liq zararlarning o‘rnini o‘zlariga tegishli aksiyalar qiymati doirasida qoplash tavakkalchiligini o‘z zimmasiga oladi.

Aksiyalarning haqini to‘liq to‘lamagan aksiyadorlar jamiyatning majburiyatlari yuzasidan o‘zlariga tegishli aksiyalar qiymatining to‘lanmagan qismi doirasida solidar javobgar bo‘ladi.

Jamiyat o‘z aksiyadorlarining majburiyatlari yuzasidan javobgar bo‘lmaydi.

Davlat va uning organlari Jamiyatning majburiyatlari yuzasidan javobgar bo‘lmaydi, huddi shuningdek Jamiyat ham davlat va uning organlarining majburiyatlari yuzasidan javobgar bo‘lmaydi.

Agar jamiyatning bankrotligi jamiyat uchun majburiy bo‘lgan ko‘rsatmalar berish huquqiga ega bo‘lgan aksiyadir sifatida ish yuritayotgan shaxsning g‘ayriqonuniy harakatlari tufayli yuzaga kelgan bo‘lsa, jamiyatning mol-mulki yetarli bo‘lmagan taqdirda, mazkur aksiyadorning zimmasiga jamiyatning majburiyatlari bo‘yicha subsidiary javobgarlik yuklatilishi mumkin. Aksiyador majburiy ko‘rsatmalar berish huquqiga ushbu ustavda bu huquq nazarda tutilgan taqdirdagina ega bo‘ladi.

Jamiyat uchun majburiy ko‘rsatmalar berish huquqiga ega bo‘lgan aksiyador jamiyat muayan harakatni amalga oshirish oqibatida bankrot bo‘lishini oldindan bila turib, ushbu huquqidan jamiyat tomonidan shunday harakat amalga oshirilishi uchun foydalangan taqdirdagina jamiyatning bankrotligi aksiyadorning harakatlari tufayli yuzaga kelgan deb hisoblanadi.

1.11. Jamiyat filiallar tashkil etishga va vakolatxonalar ochishga haqli.

1.12. Filial Jamiyatning Jamiyat joylashgan yeridan tashqarida joylashgan hamda uning barcha vazifalarini yoki ularning bir qismini, shu jumladan vakolatxonaning vazifalarini amalga oshiradigan alohida bo‘linmasidir.

Filial Jamiyatning Jamiyat joylashgan yeridan tashqarida joylashgan, uning manfaatlarini ifodalaydigan va bu manfaatlarni himoya qilishni amalga oshiradigan alohida bo‘linmasidir.

Jamiyatning filiali va vakolatxonasi yuridik shaxs bo‘lmaydi. Ular Jamiyat Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan nizom asosida ish yuritadi. Jamiyatning filialiga va vakolatxonaga berib qo‘yilgan mol-mulki Jamiyatning balansida hisobga olinadi.

Filialning yoki vakolatxonaning rahbari Jamiyat tomonidan tayinlanadi va Jamiyat tomonidan berilgan ishonchnoma asosida ish yuritadi.

Filial hamda vakolatxona faoliyati uchun javobgarlik Jamiyat zimmasida bo‘ladi.

Jamiyat tomonidan O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida filiallar tashkil etish va vakolatxonalar ochish, agar O‘zbekiston Respublikasining halqaro shartnomasida boshqacha

qoida nazarda tutilgan bo'lsa, filiallar va vakolatxonalar joylashgan yerdadagi mamlakatning qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

1.13. Jamiyat qonun hujjatlariga muvofiq aksiyadorlik jamiyati yoki ma'sulyati cheklangan jamiyat shaklidagi sho'ba va tobe xo'jalik jamiyatlariga ega bo'lishi mumkin.

Sho'ba xo'jalik jamiyati Jamiyat majburiyatlari yuzasidan javobgar bo'lmaydi.

Sho'ba xo'jalik jamiyatiga majburiy ko'rsatmalar berish huquqiga ega Jamiyat bunday ko'rsatmalarni bajarish uchun sho'ba xo'jalik jamiyati tomonidan tuzilgan bitimlar yuzasidan sho'ba xo'jalik jamiyati bilan solidar javobgar bo'ladi.

Agar Jamiyat xo'jalik jamiyatining ovoz beruvchi aksiyalarining (ulushlarining) 20% (yigirma) foizidan ortig'iga ega bo'lsa, xo'jalik jamiyati tobe deb e'tirof etiladi.

1.14. Jamiyat korxonalar, tashkilotlar va boshqa tijorat tuzilmalarini tashkil etishda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qatnashish huquqiga ega.

Jamiyat, shuningdek notijorat tashkilotlarda ishtirok etishi mumkin.

II. JAMIYAT FAOLIYATINING SOHASI (ASOSIY YO'NALISHLARI) VA MAQSADI

2.1. Jamiyat faoliyatining asosiy maqsadi aksiyadorlarning manfaatlarini yo'lida foyda (daromad) olishdir.

2.2. Jamiyatning asosiy vazifalari va yo'nalishlari quyidagilardir:

shisha idishlari, qurilish uchun me'morchilik oynasi, o'tga chidamli mahsulotlar, avtotransport uchun oyna qismlari, polietilen plyonkasi, yog'och va boshqa materiallardan shisha, oyna mahsulotlarini qadoqlovchi idishlar (taralar), oynaga qayta ishlov berish, undan iste'molchilarning buyurtmalariga asosan turli xildagi mebel va boshqa jihozlarni ishlab chiqarish;

maxsulotlarni qayta ishlash, qadoqlash, saqlash, pul o'tkazish yoki hisob-kitobni qo'llash yo'li bilan bozorlarda hamda o'z savdo shaxobchalari orqali sotish va eksport qilish;

yuridik va jismoniy shaxslarga naqd pul va pul o'tkazish orqali yuk tashishni amalga oshirish;

o'zi ishlab chiqargan mahsulotlarni sotish uchun O'zbekiston Respublikasi hududida va xorijiy davlatlarda sho'ba korxonalar, vakolatxonalar, filiallar, savdo va tijorat do'konlarini ochish va ulgurji-chakana savdoni amalga oshirish;

yuridik va jismoniy shaxslarga naqd pul yoki pul o'tkazish yo'li bilan mahsulotlar sotishni amalga oshirish;

o'z ishlab chiqargan mahsulotlarini eksport qilish uchun va chetdan xomashyo keltirish uchun MDH (Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi)da o'z filiallarini O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida ko'zda tutilgan tartibda tashkil qilish.

asosiy faoliyatiga xos bo'lmagan yangi ko'chmas mulk obyektlarini sotib olish yoki qurish;

asosiy faoliyatga xos bo'lmagan xo'jalik jamiyatlari ustav kapitalida ishtirok etish yoki undagi ulushni sotib olish taqiqlanadi;

raqobat rivojlangan sohada asosiy faoliyatidan tashqari qo'shimcha faoliyat bilan shug'ullanish;

Bunda, Jamiyat tomonidan asosiy faoliyatiga xos bo'lgan yangi ko'chmas mulk ob'ektlarini sotib olish yoki qurish hamda xo'jalik jamiyatlari ustav kapitalidagi ulushni sotib olish, shuningdek, asosiy faoliyatidan tashqari qo'shimcha faoliyat bilan shug'ullanish Kuzatuv kengashi qaroriga asosan amalga oshirish, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumati qarorlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

2.3. Maxsus ruhsatnoma (litsenziya) olishni talab qiladigan faoliyat turlari qonunchilikda o'rnatilgan tartibda, litsenziya olingandan keyin amalga oshiriladi.

2.4. Jamiyat, qo'shimcha foyda olish maqsadida O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida ta'qiqlanmagan boshqa faoliyat turlari bilan shugullanishga haqlidir.

2.5. Jamiyatning tashqi iqtisodiy faoliyati qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

III. JAMIYAT USTAV KAPITALINING MIQDORI

3.1. Jamiyatning ustav fondi aksiyadorlar olgan Jamiyat aksiyalarining nominal qiymatidan tashkil topadi va O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasida ifodalanadi.

3.2. Jamiyatning ustav fondi 165 410 408 870 (Bir yuz oltmish besh milliard to'rt yuz o'n million to'rt yuz sakkiz ming sakkiz yuz yetmish) so'mni tashkil qilib, har bir aksiyaning nominal qiymati 1715 (Bir ming yetti yuz o'n besh) so'm bo'lgan 96 449 218 (To'qson olti million to'rt yuz qirq to'qqiz ming ikki yuz o'n sakkiz) dona egasining nomi yozilgan oddiy aksiyalarga bo'lingan.

3.3. Jamiyatning ustav fondi jamiyat mol-mulkinging jamiyat kreditorlari manfaatlarini kafolatlaydigan eng kam miqdorini belgilaydi.

3.4. Jamiyat 165 410 408 870 (Bir yuz oltmish besh milliard to'rt yuz o'n million to'rt yuz sakkiz ming sakkiz yuz yetmish) so'm miqdorida 96 449 218 (To'qson olti million to'rt yuz qirq to'qqiz ming ikki yuz o'n sakkiz) dona oddiy nominal qiymati 1715 (Bir ming yetti yuz o'n besh) so'm bo'lgan qo'shimcha e'lon qilingan egasining nomi yozilgan oddiy aksiyalar chiqarishga haqli.

a) Jamiyatning ustav fondini ko'paytirish

3.5. Jamiyatning ustav fondi aksiyalarning qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish yo'li bilan ko'paytirilishi mumkin.

3.6. Qo'shimcha aksiyalar e'lon qilingan Jamiyat Ustavida belgilangan aksiyalarning soni doirasidagina Jamiyat tomonidan joylashtirilishi mumkin.

3.7. Jamiyat ustav fondini qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish yo'li bilan ko'paytirish hamda Jamiyat ustaviga tegishli o'zgartishlar kiritish to'g'risidagi qaror Kuzatuv kengashi tomonidan qabul qilinadi.

Jamiyat ustav fondini qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish yo'li bilan ko'paytirish to'g'risidagi qarorda joylashtiriladigan qo'shimcha aksiyalarning soni, ularni joylashtirish muddatlari va shartlari belgilangan bo'lishi kerak.

Ustav fondini qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish yo'li bilan ko'paytirish to'g'risidagi qarorda joylashtiriladigan qo'shimcha aksiyalarning umumiy qiymati, soni, turi, nominal qiymati, joylashtirish tartibi, usuli, muddati, joylashtirish (aksiyalarning birja va uyushgan birjadan tashqari bozoriga chiqarish) narxi, aksiyalar uchun to'lov tartibi, amalga oshmagan deb topish ulushi va amalga oshmagan deb topilgan taqdirda aksiyalar uchun qabul qilingan to'lov vositalarini qaytarish tartibi belgilanadi.

Jamiyat ustav fondini qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish yo'li bilan ko'paytirish jalb qilingan investitsiyalar, Jamiyatning o'z kapitali va hisoblangan dividendlar hisobidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshirilishi mumkin.

Jamiyat ustav fondini uning o'z kapitali hisobidan qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish yo'li bilan ko'paytirishda bu aksiyalar barcha aksiyadorlar o'rtasida taqsimlanadi. Bunda har bir

aksiyadorga qaysi turdagi aksiyalar tegishli bo'lsa, ayni o'sha turdagi aksiyalar unga tegishli aksiyalar soniga mutanosib ravishda taqsimlanadi. Jamiyat ustav fondi ko'paytirilishi natijasida ko'paytirish summasining bitta aksiyaning nominal qiymatiga muvofiqligi ta'minlanmaydigan bo'lsa, Jamiyat ustav fondini ko'paytirishga yo'l qo'yilmaydi.

Jamiyat ustav fondini qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish yo'li bilan ko'paytirish joylashtirilgan qo'shimcha aksiyalarning nominal qiymati miqdorida ro'yxatdan o'tkaziladi. Bunda mazkur Ustavda ko'rsatilgan e'lon qilingan qo'shimcha aksiyalarning soni joylashtirilgan qo'shimcha aksiyalarning soniga qisqartirilishi kerak.

3.8. Jamiyatning tegishli boshqaruv organi tomonidan qabul qilingan qo'shimcha aksiyalarni chiqarish to'g'risidagi qaror Jamiyat ustav fondini ko'paytirish to'g'risidagi qarordir.

b) Jamiyatning ustav fondini kamaytirish

3.9. Jamiyat ustav fondi aksiyalarning nominal qiymatini kamaytirish yoki aksiyalarning umumiy sonini qisqartirish yo'li bilan, shu jumladan aksiyalarning bir qismini keyinchalik bekor qilgan holda Jamiyat tomonidan aksiyalarni olish yo'li bilan kamaytirilishi mumkin.

Jamiyat ustav fondini aksiyalarning bir qismini olish va bekor qilish yo'li bilan kamaytirishga haqli.

3.10. Jamiyat ustav fondini kamaytirish to'g'risidagi va Jamiyat Ustaviga tegishli o'zgartirishlar kiritish haqidagi qarorlar Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilinadi.

Jamiyat ustav fondini kamaytirish to'g'risida qaror qabul qilinayotganda Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi ustav fondini kamaytirish sabablarini ko'rsatadi va uni kamaytirish tartibini belgilaydi.

3.11. Jamiyat ustav fondini kamaytirish to'g'risida qaror qabul qilingan sanadan e'tiboran o'ttiz kundan kechiktirmay o'z kreditorlarini bu haqda yozma shaklda xabardor qiladi. Kreditorlar Jamiyat ustav fondini kamaytirish to'g'risida o'zlariga bildirish yuborilgan sanadan e'tiboran o'ttiz kundan kechiktirmay Jamiyatdan o'z majburiyatlarini muddatidan oldin bajarishini va ustav fondi kamaytirilishi bilan bog'liq zararlarning o'rnini qoplashini talab qilishga haqli.

IV. JAMIYAT AKSIYALARINING TURLARI, ULARNING NOMINAL QIYMATI, HAR XIL TURDAGI AKSIYALARNING NISBATI, JAMIYATNING BOSHQA QIMMATLI QOG'OZLARI

4.1. Jamiyatning aksiyalari oddiy egasining nomi yozilgan emissiyaviy qimmatli qog'ozlar hisoblanadi. Har bir aksiyaning nominal qiymati 1715 (Bir ming yetti yuz o'n besh) so'm.

Aksiyalar mulk huquqi yoki boshqa ashyoviy huquq asosida qaysi yuridik yoki jismoniy shaxsga tegishli bo'lsa, o'sha yuridik yoki jismoniy shaxs aksiyaning egasi - Jamiyat aksiyadori deb e'tirof etiladi.

Oddiy aksiyalarning egalari bo'lgan aksiyadorlar qonunchilik va ushbu Ustavga muvofiq Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida mazkur yig'ilish vakolatiga kiradigan barcha masalalar bo'yicha ovoz berish huquqi bilan ishtirok etishi mumkin, shuningdek dividendlar olish, Jamiyat tugatilgan taqdirda esa, o'zlariga tegishli ulushga muvofiq Jamiyat mol-mulkinging bir qismini olish huquqiga ega.

4.2. Aksiyaning egasi bo'lgan aksiyadorga ovozga qo'yilgan masalani hal etishda ovoz berish huquqini beradigan oddiy aksiya Jamiyatning ovoz beruvchi aksiyasidir.

4.3. Jamiyatning oddiy aksiyalarini imtiyozli aksiyalarga, korporativ obligatsiyalarga va boshqa qimmatli qog'ozlarga ayirboshlashga yo'l qo'yilmaydi.

4.4. Jamiyat qonun hujjatlarida nazarda tutilgan korporativ obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlarni chiqarishga hamda joylashtirishga haqli.

Jamiyat mol-mulk bilan ta'minlangan korporativ obligatsiyalarni ularni chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish sanasidagi o'z kapitali miqdori doirasida chiqarishga haqli.

Jamiyatning korporativ obligatsiyalari Jamiyat aksiyalariga ayirboshlanadigan qimmatli qog'ozlar bo'lishi mumkin.

Jamiyat tomonidan korporativ obligatsiyalarni chiqarish, shu jumladan aksiyalarga ayirboshlanadigan korporativ obligatsiyalarni chiqarish Jamiyat Kuzatuv kengashi qaroriga ko'ra amalga oshiriladi.

Jamiyat tomonidan aksiyalarga ayirboshlanadigan korporativ obligatsiyalar chiqarilgan taqdirda, mazkur qaror Jamiyat Kuzatuv kengashining barcha a'zolari tomonidan bir ovozdan qabul qilinishi kerak.

Aksiyalarga ayirboshlanadigan qimmatli qog'ozlar Jamiyat tomonidan joylashtirilgan taqdirda e'lon qilingan aksiyalarning soni ushbu qimmatli qog'ozlarning muomalada bo'lishi muddati mobaynida ayirboshlash uchun zarur miqdordan kam bo'lmasligi lozim.

Jamiyat o'zi joylashtirgan qimmatli qog'ozlar ayirboshlanishi mumkin bo'lgan aksiyalar beradigan huquqlarni cheklash haqida ushbu qimmatli qog'ozlar egalari roziligisiz qaror qabul qilishga haqli emas.

V. JAMIYAT AKSIYALARINI JOYLASHTIRISH TARTIBI VA SHARTLARI

5.1. Jamiyat aksiyalarni va aksiyalarga ayirboshlanadigan qimmatli qog'ozlarni ochiq va yopiq obuna vositasida joylashtirishga haqli.

Aksiyalarning ochiq obunasi faqat qimmatli qog'ozlarning birja bozorida va uyushgan birjadan tashqari bozorda o'tkaziladi.

Qo'shimcha chiqarilayotgan aksiyalar ochiq va yopiq obuna usullari bilan joylashtiriladi.

Jamiyat o'zi chiqarayotgan aksiyalarga ularni ommaviy joylashtirish yo'li bilan qonunchilik talablarini hisobga olgan holda ochiq obuna o'tkazishga haqli.

Bunda jamiyat xodimlari jamiyat tomonidan joriy qilinadigan aksiyalar birlamchi ommaviy joylashtirilganda xodimlarning aksiyaga egalik qilish rejasi doirasida aksiyalarni sotib olishga imtiyozli huquqqa ega.

5.2. Jamiyat tomonidan Jamiyatning qo'shimcha aksiyalarini va boshqa emissiyaviy qimmatli qog'ozlarini joylashtirish muddati ularning chiqarilishi davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran bir yildan oshmasligi kerak. Jamiyatning qo'shimcha aksiyalariga ushbu aksiyalarni chiqarish to'g'risidagi qarorda ko'rsatilgan joylashtirish muddati ichida haq to'lanishi lozim.

5.3. Jamiyatning aksiyalarini va boshqa qimmatli qog'ozlarini joylashtirish chog'ida ularga haq to'lash pul va boshqa to'lov vositalari, mol-mulk, shuningdek pulda ifodalanadigan bahoga ega bo'lgan huquqlar (shu jumladan mulkiy huquqlar) orqali amalga oshiriladi. Qo'shimcha aksiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlarga haq to'lash tartibi ularni chiqarish to'g'risidagi qarorda belgilab qo'yiladi.

5.4. Aksiyalarni joylashtirish, shu jumladan aksiyadorlar o'rtasida joylashtirish to'g'risida qaror qabul qilishda aksiyalarni joylashtirish (qimmatli qog'ozlarning birja bozoriga va uyushgan birjadan tashqari bozoriga chiqarish) narxi Jamiyat Kuzatuv kengashi tomonidan qimmatli qog'ozlar savdosi tashkilotchilarining savdo maydonchalarida vujudga kelayotgan narxlar kon'yunkturasidan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Jamiyatning qo‘shimcha aksiyalari va boshqa qimmatli qog‘ozlarini joylashtirish chog‘ida ularga haq to‘lash ularni chiqarish to‘g‘risidagi qarorda belgilanganidan kam bo‘lmagan narx bo‘yicha amalga oshiriladi.

Jamiyatning ustav fondi ko‘paytirilayotganda Jamiyatning qo‘shimcha aksiyalariga uning o‘z kapitali hisobidan, shuningdek haqini qo‘shimcha aksiyalar bilan to‘lash to‘g‘risida qaror qabul qilingan dividendlar hisobidan haq to‘langan taqdirda, bunday aksiyalarni joylashtirish Jamiyat aksiyalarining nominal qiymati bo‘yicha amalga oshiriladi.

5.5. Jamiyat tomonidan aksiyalarni va aksiyalarga ayirboshlanadigan, haqi pul mablag‘lari bilan to‘lanadigan emissiyaviy qimmatli qog‘ozlarni joylashtirishda ovoz beruvchi aksiyalarning egalari bo‘lgan aksiyadorlar ularni imtiyozli ravishda olish huquqiga ega. Aksiyador, shu jumladan, aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishida qarshi ovoz bergan yoxud unda ishtirok etmagan aksiyador aksiyalarni va aksiyalarga ayirboshlanadigan emissiyaviy qimmatli qog‘ozlarni o‘ziga tegishli shu turdagi aksiyalar miqdoriga mutanosib miqdorda imtiyozli olish huquqiga (bundan buyon matnda imtiyozli huquq deb yuritiladi) ega.

Imtiyozli huquqqa ega bo‘lgan shaxslarning ro‘yhati qimmatli qog‘ozlarni chiqarish to‘g‘risidagi qaror qabul qilingan sanadagi Jamiyat aksiyadorlari reyestrining ma‘lumotlari asosida tuziladi.

Imtiyozli huquq amalga oshirilgan taqdirda, aksiyadorlar aksiyalarning va aksiyalarga ayirboshlanadigan emissiyaviy qimmatli qog‘ozlarning faqat butun miqdorini olishi mumkin.

Imtiyozli huquqning amal qilish muddati aksiyalarni yoki boshqa emissiyaviy qimmatli qog‘ozlarni olishni taklif etish to‘g‘risidagi bildirish e‘lon qilingan paytdan e‘tiboran o‘n kundan kam va o‘ttiz kundan ko‘p bo‘lishi mumkin emas.

Imtiyozli huquqdan boshqa shaxs foydasiga voz kechishga yo‘l qo‘yilmaydi.

VI. JAMIYAT AKSIYADORLARINING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

6.1. Jamiyat aksiyadorlari:

Jamiyat aksiyadorlarining reyestriga kiritilish;

depo hisobvarag‘idan o‘ziga taalluqli ko‘chirma olish;

Jamiyat foydasining bir qismini dividendlar tarzida olish;

Jamiyat tugatilgan taqdirda o‘zlariga tegishli ulushga muvofiq mol-mulkning bir qismini olish;

Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishlarida ovoz berish orqali Jamiyatni boshqarishda ishtirok etish;

Jamiyatning moliya-xo‘jalik faoliyati natijalari to‘g‘risida to‘liq va ishonchli axborotni belgilangan tartibda olish;

Jamiyatning 5 foiz ulushga ega aksiyadorlarga auditorlik tekshiruvini o‘tkazish tashabbusi bilan chiqish;

olingan dividendini erkin tasarruf etish;

qimmatli qog‘ozlar bozorini tartibga solish bo‘yicha vakolatli davlat organida, shuningdek sudda o‘z huquqlarini himoya qilish;

o‘ziga yetkazilgan zararining o‘rnini qoplanishini belgilangan tartibda talab qilish;

o‘z manfaatlarini ifodalash va himoya qilish maqsadida uyushmalarga va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlarga birlashish;

qimmatli qog‘ozlarni olishda zarar ko‘rish, shu jumladan boy berilgan foyda ehtimoli bilan bog‘liq tavakkalchiliklarni sug‘urta qilish;

Aksiyadorlar, shu jumladan minoritar aksiyadorlari, ovoz berishda ularning yagona pozitsiyasini shakllantirish uchun aksiyadorlik kelishuvlarini tuzishga;

Aksiyadorlar qonun hujjatlari va ushbu Ustavga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

6.2. Aksiyadorlar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va ko'zda tutilgan hollarda o'zlariga tegishli aksiyalarning hammasi yoki bir qismi jamiyat tomonidan qaytarib sotib olinishini talab qilishga haqli.

6.3. Har bir oddiy aksiya unga egalik qiluvchi har bir aksiyadorga shu turdagi aksiyalarning boshqa egalari bilan bir xil bo'lgan hajmdagi huquqlarni beradi.

6.4. Aksiyadorning aktiyadorlar umumiy yig'ilishida ishtirok etishi, dividendlar olishi va Jamiyat tomonidan korporativ harakatlar bajarilganda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa huquqlarni amalga oshirishi Jamiyat aksiyadorlarining reyestri asosida amalga oshiriladi.

6.5. Aksiyador tomonidan huquqlarning amalga oshirilishi boshqa aksiyadorlarning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini buzmasligi lozim.

Aksiyalarni boshqa shaxsga berishga doir cheklov belgilanishi aksiyadorni - mazkur aksiyalar egasini qonunchilikda belgilangan tartibda Jamiyatni boshqarishda ishtirok etish va ular bo'yicha dividendlar olish huquqidan mahrum qilmaydi.

6.6. Jamiyat aksiyadorlari quyidagi majburiyatlarga ega:

Jamiyatning aksiyalariga qonun hujjatlarida, ushbu Ustavda va aksiya chiqarilishi to'g'risidagi qarorlarda ko'zda tutilgan tartibda, usullarda va muddatlarda haq to'lash;

Jamiyat faoliyati to'g'risidagi maxfiy ma'lumotlarni oshkor qilmaslik;

Jamiyat aksiyalarining 50 va undan ortiq foizi egasiga aylangan shaxs, agar u bungacha mazkur jamiyat aksiyalariga egalik qilmagan yoki aksiyalarining 50 foizidan kamrog'iga egalik qilgan bo'lsa, qolgan aksiyalar egalari aksiyalarni bozor qiymati bo'yicha o'ziga sotishlari borasidagi taklifini o'ttiz kun ichida e'lon qilishi hamda Aksiyadorning o'ziga tegishli aksiyalarni sotishi to'g'risidagi yozma roziligi e'lon qilingan kundan e'tiboran o'ttiz kun ichida olingan taqdirda, jamiyatning 50 va undan ortiq foiz aksiyalari egasi mazkur aksiyalarni sotib olish;

Aksiyadorlar qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa majburiyatlarga ham ega bo'lishi mumkin.

6.7. Aksiyalarga bo'lgan huquqlar aksiyalarni oluvchiga uning depo hisobvarag'iga tegishli kirim yozuvi belgilangan tartibda kiritilgan paytdan e'tiboran o'tadi va qonun hujjatlarida belgilangan tartibda depo hisobvarag'idan ko'chirma bilan tasdiqlanadi.

Aksiya bilan tasdiqlanadigan huquqlar ularni oluvchiga ushbu qimmatli qog'ozga bo'lgan huquqlar o'tgan paytdan e'tiboran o'tadi.

6.8. Jamiyatning majoritar aksiyadori va uning majburiyatlari.

Jamiyat ovoz beruvchi aksiyalarining ellik foizidan ortig'iga egalik qiluvchi yoxud ovoz beruvchi aksiyalari miqdori jamiyatning boshqa har bir aksiyadori ulushiga nisbatan ko'p bo'lgan hamda ovozi qaror natijasiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan aksiyador majoritar aksiyador deb e'tirof etiladi.

Agar majoritar aksiyadorga qarorlar jamiyatning va boshqa aksiyadorlarning manfaatlariga zarar keltirishi oldindan ayon bo'lsa, u mazkur qarorlarni shaxsiy manfaatlarini hisobga olib qabul qilmasligi, jamiyat boshqaruv organlarining yig'ilishi kun tartibiga jamiyatning va boshqa aksiyadorlarning manfaatlariga mos kelmaydigan masalalarni yoki hal etilishi jamiyatning va boshqa aksiyadorlarning manfaatlariga zarar yetkazishi oldindan ma'lum bo'lgan masalalarni kiritmasligi shart;

Jamiyatning majoritar aksiyadori ushbu moddada nazarda tutilgan majburiyatlarni bajarmaslik natijasida jamiyatga va boshqa aksiyadorlarga yetkazilgan zarar uchun javobgar bo'ladi.

6.9. Minoritar aksiyadorlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida jamiyatda ularning orasidan minoritar aksiyadorlarning qo'mitasi tashkil etilishi mumkin.

Minoritar aksiyadorlar qo'mitasining tarkibiga nomzodlar bo'yicha takliflar jamiyatga jamiyat Kuzatuv kengashiga nomzodlar bo'yicha takliflar kiritish uchun nazarda tutilgan tartibda va muddatlarda kiritiladi.

Minoritar aksiyadorlar qo'mitasi a'zolarining soni 3 (uch) kishidan iborat saylanadi.

Jamiyatning minoritar aksiyadorlari hujjatlarni asossiz ravishda talab qilish va maxfiy axborotlar, tijorat sirlarini qo'llash yo'li bilan Jamiyat boshqaruv organi faoliyatiga to'sqinlik qilmasligi lozim.

VII. DIVIDENDLARNI TO'LASH TARTIBI

7.1. Dividend Jamiyat sof foydasining aksiyadorlar o'rtasida taqsimlanadigan qismidir.

Jamiyat aksiyalarning har bir turi bo'yicha e'lon qilingan dividendlarni to'lashi shart.

Dividend Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qaroriga ko'ra pul mablag'lari yoki boshqa qonuniy to'lov vositalari yoxud Jamiyatning qimmatli qog'ozlari bilan to'lanishi mumkin.

Dividend aksiyadorlar o'rtasida ularga tegishli aksiyalarning soni va turiga mutanosib ravishda taqsimlanadi.

Jamiyat tomonidan oddiy aksiyalar bo'yicha hisoblangan dividendlarni to'lash aksiyadorlarning dividendlarni olishga bo'lgan teng huquqlariga rioya etilgan holda amalga oshiriladi.

7.2. Jamiyat moliyaviy yilning birinchi choragi, yarim yilligi, to'qqiz oyi natijalariga ko'ra va (yoki) moliyaviy yil natijalariga ko'ra joylashtirilgan aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lash to'g'risida qaror qabul qilishga haqli.

Jamiyatning moliyaviy yilning birinchi choragi, yarim yilligi va to'qqiz oyi natijalariga ko'ra dividendlar to'lash to'g'risida qarori tegishli davr tugagandan keyin uch oy ichida qabul qilinishi mumkin.

7.3. Aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lash, dividendning miqdori, uni to'lash shakli va tartibi to'g'risidagi qaror Jamiyat Kuzatuv kengashining tavsiyasi, moliyaviy hisobotning ishonchliligi haqida auditorlik xulosasi mavjud bo'lgan taqdirda, moliyaviy hisobot ma'lumotlari asosida Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilinadi. Dividendlarning miqdori Jamiyat Kuzatuv kengashi tomonidan tavsiya etilgan miqdordan ko'p bo'lishi mumkin emas. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi aksiyalarning muayyan turlari bo'yicha dividendlar to'lamaslik to'g'risida qaror qabul qilishga haqli. Dividendlar to'lash to'g'risidagi qarorda dividendlar to'lash boshlanadigan va tugaydigan sanalar ko'rsatilgan bo'lishi lozim.

7.4. Dividendlar Jamiyatning Jamiyat tasarrufida qoladigan sof foydasidan va (yoki) o'tgan yillarning taqsimlanmagan foydasidan to'lanadi.

Dividendlar to'lash muddati va tartibi Jamiyat aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi qarorida belgilanadi. Dividendlar to'lash muddati shunday qaror qabul qilingan kundan e'tiboran oltmish kundan kech bo'lmasligi lozim.

7.5. Egasi yoki egasining qonuniy huquqiy vorisi yoxud merosxo'ri tomonidan uch yil ichida talab qilib olinmagan dividend Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qaroriga ko'ra Jamiyat ixtiyorida qoladi.

7.6. Aksiyadorlarga dividendlarni to'lash to'g'risida qaror qabul qilingan Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish uchun shakllantirilgan Jamiyat aksiyadorlari reyestrda qayd etilgan shaxslar aksiyalar bo'yicha dividend olish huquqiga ega.

7.7. Jamiyat:

ustav fondining hammasi u ta'sis etilishi chog'ida to'liq to'lab bo'linguniga qadar;

agar dividendlar to'lanadigan paytda Jamiyatda bankrotlik belgilari mavjud bo'lsa yoki Jamiyatda shunday belgilar dividendlar to'lash natijasida paydo bo'lsa;

agar Jamiyat sof aktivlarining qiymati uning ustav fondi va zaxira fondi summasidan kam bo'lsa, aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lash to'g'risida qaror qabul qilishga hamda dividendlar to'lashga haqli emas.

Ushbu bandda ko'rsatilgan holatlar tugatilgach, Jamiyat hisoblangan dividendlarni aksiyadorlarga to'lashi shart.

7.8. Jamiyat dividendlarning miqdorini ulardan undiriladigan soliqlarni inobatga olmagan holda e'lon qiladi. Jamiyat to'lanadigan dividendlar miqdori to'g'risidagi ma'lumotlarni qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organining va Jamiyatning rasmiy veb-saytida qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda e'lon qiladi.

VIII. JAMIYATNING ZAXIRA FONDINI VA BOSHQA FONDLARINI TASHKIL ETISH TARTIBI

8.1. Jamiyatda sof foyda hisobidan ustav fondining 15 (o'n besh) foizi miqdorida zaxira fondi tuziladi. Jamiyatning zaxira fondi ushbu Ustavda belgilangan miqdorga yetguniga qadar sof foydaning kamida 5 (besh) foizi miqdorida har yilgi majburiy ajratmalar orqali shakllantiriladi.

8.2. Boshqa mablag'lar mavjud bo'lmagan taqdirda, Jamiyatning zaxira fondi Jamiyatning zararlarini o'rnini qoplash, Jamiyatning korporativ obligatsiyalarini muomaladan chiqarish, imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lash va Jamiyatning aksiyalarini qaytarib sotib olish uchun mo'ljallanadi.

8.3. Jamiyatning zaxira fondidan boshqa maqsadlar uchun foydalanish mumkin emas.

8.4. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qaroriga muvofiq Jamiyatda boshqa fondlar tashkil etilishi mumkin.

8.5. Zaxira fondi to'laligicha yoki qisman sarflanib bo'lgan hollarida, sof foydadan majburiy ajratmalardan tiklanadi.

IX. JAMIYAT BOSHQARUVINING TUZILMASI

9.1. Jamiyatni boshqarish organlari quyidagilardan iborat:

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi;

Kuzatuv Kengashi;

Ijroiya organi.

X. JAMIYAT AKSIYADORLARINING UMUMIY YIG'ILISHI

10.1. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi Jamiyatning yuqori boshqaruv organidir.

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini Jamiyat Kuzatuv kengashi raisi, u uzrli sabablarga ko'ra bo'lmagan taqdirda esa, Jamiyat Kuzatuv kengashi a'zolaridan biri olib boradi.

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini chaqirish va o'tkazish tartibi, shuningdek Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini olib borish tartibi bo'yicha Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan qaror qabul qilish tartibi Jamiyat aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlangan "Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi to'g'risida"gi nizomda belgilanadi.

10.2. Jamiyat har yili Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini (aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishini) o'tkazishi shart.

Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishi moliya yili tugaganidan keyin olti oydan kechiktirmay o'tkaziladi. Jamiyat aksiyadorlarining navbatdagi (yillik) umumiy yig'ilishi xar yili odatda iyun oyining to'rtinchi xaftasi payshanba kuni o'tkaziladi

Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishida jamiyatning Kuzatuv kengashi a'zolarini saylash to'g'risidagi shuningdek jamiyatning yillik hisoboti, jamiyat ijroiya organi va Kuzatuv kengashining jamiyatni rivojlantirish strategiyasiga erishish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar to'g'risidagi hisobotlari va boshqa hujjatlari ko'rib chiqiladi.

10.3. Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishidan tashqari o'tkaziladigan umumiy yig'ilishlari navbatdan tashqari yig'ilishlar hisoblanadi.

10.4. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining vakolat doirasiga quyidagilar kiradi:

jamiyat ustaviga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish yoki jamiyatning yangi tahrirdagi ustavini tasdiqlash, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno;

jamiyatni qayta tashkil etish;

jamiyatni tugatish, tugatuvchini (tugatish komissiyasini) tayinlash hamda oraliq va yakuniy tugatish balanslarini tasdiqlash;

jamiyat Kuzatuv kengashining va minoritar aksiyadorlar qo'mitasining son tarkibini belgilash, ularning a'zolarini saylash va a'zolarining vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;

e'lon qilingan aksiyalarning eng ko'p miqdorini belgilash;

jamiyatning ustav kapitalini kamaytirish;

o'z aksiyalarini olish;

jamiyatning tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash;

jamiyatning kollegial ijroiya organini tuzish, Boshqaruv raisini saylash (tayinlash), uning vakolatlarini muddatidan oldin ilgari tugatish;

jamiyatning yillik hisobotini, shuningdek Jamiyat faoliyatining asosiy yo'nalishlari va maqsadidan kelib chiqqan holda Jamiyatni o'rta muddatga va uzoq muddatga rivojlantirishning aniq muddatlari belgilangan strategiyasini tasdiqlash;

jamiyatning foydasi va zararlarini taqsimlash;

jamiyat Kuzatuv kengashining o'z vakolat doirasiga kiradigan masalalar yuzasidan, shu jumladan jamiyatni boshqarishga doir qonun hujjatlarida belgilangan talablarga rioya etilishi yuzasidan jamiyat Kuzatuv kengashining hisobotlarini xulosalarini eshitish;

aksiyadorlar umumiy yig'ilishining reglamentini tasdiqlash;

aksiyalarni maydalash va yiriklashtirish;

jamiyatning Kuzatuv kengashi a'zolariga, haq va (yoki) kompensatsiyalarni, shuningdek ularning eng yuqori miqdorlarini belgilash;

qonunchilikda belgilangan hollarda Jamiyat tomonidan yirik bitimlar va jamiyat affillangan shaxslari bilan bitimlar tuzish to'g'risida qaror qabul qilish;

majburiy auditorlik tekshiruvini o'tkazish uchun auditorlik tashkilotini belgilash, ushbu tashkilotning xizmatlariga to'lanadigan eng ko'p haq miqdori va u bilan shartnoma tuzish (shartnomani bekor qilish) to'g'risida qaror qabul qilish;

O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunga asosan balans qiymati yoki olish qiymati bitim tuzish to'g'risida qaror qabul qilinayotgan sanada jamiyat sof aktivlari miqdorining ellik foizidan ortig'ini tashkil etuvchi mol-mulk xususida yirik bitim tuzish to'g'risidagi qaror qabul qilish;

Korporativ boshqaruv kodeksi tavsiyalariga rioya etish majburiyatini olish to'g'risida qaror qabul qilish va xabarni oshkor qilish shaklini tasdiqlash;

vakolati doirasida me'yoriy hujjatlarni tasdiqlash;

har yili mustaqil professional tashkilotlar – maslahatchilarni jalb qilgan holda biznes-jarayonlar va loyihalarning Jamiyatning rivojlanish maqsadlariga muvofiqligi yuzasidan tahlil o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilish;

Jamiyatning kundalik xo'jalik faoliyatiga kiruvchi bitimlarni belgilash;

homiylilik (xayriya) yoki beg'araz yordam ko'rsatish (olish) tartibi va shartlarini belgilash, ularni amalga oshirish vakolatini Kuzatuv kengashiga berish to'g'risida qaror qabul qilish;

elektron pochta orqali (elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan holda), shuningdek, o'z vakolatini vakilga berish yo'li bilan ovoz berish yoki umumiy yig'ilishni videokonferents-aloqa tarzida o'tkazish tartibini belgilash (tasdiqlash);

sanoq komissiyasiga amaliy ko'mak ko'rsatish yoki uning funksiyasini bajarish uchun mustaqil ekspertlarni jalb etish (masalan, investitsiya maslahatchisi yoki qimmatli qog'ozlar bozorining boshqa professional ishtirokchisi) tartibini belgilash (tasdiqlash);

Jamiyat mablag'lari hisobidan minoritar aksiyadorlik qo'mitasini saqlash xarajatini qoplash (minoritar aksiyadorlik qo'mitasi tuzilgan taqdirda) tartibini belgilash (tasdiqlash);

aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida hisobot beruvchi Jamiyat ijro va nazorat organlari ma'ruzalari (hisobotlari) shakli va mazmuniga bo'lgan talablarni, aksiyadorlar umumiy yig'ilishi davomiyligini belgilash;

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qonun hujjatlariga, ushbu Ustav va Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlangan "Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi to'g'risida"gi nizomga muvofiq boshqa masalalarni hal etishi mumkin.

10.5. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining vakolat doirasiga kiritilgan masalalar Jamiyat ijroiya organi hal qilishi uchun berilishi mumkin emas.

Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining vakolat doirasiga kiritilgan masalalar Jamiyatning Kuzatuv kengashi hal qilishi uchun berilishi mumkin emas, qonun hujjatlarida va ushbu Ustavda ko'zda tutilgan hollar bundan mustasno.

10.6. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etish huquqiga Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan sanadan uch ish kuni oldin shakllantirilgan Jamiyat aksiyadorlarining reyestrda qayd etilgan aksiyadorlar ega bo'ladi.

Jamiyat aksiyadorining talabiga ko'ra aksiyadorga u Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish uchun shakllantirilgan Jamiyat aksiyadorlari reyestriga kiritilganligi to'g'risida axborot taqdim etishi shart.

10.7. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ovozga qo'yilgan masalalar bo'yicha Jamiyatning oddiy aksiyalari egalari bo'lgan aksiyadorlar ovoz berish huquqiga ega.

10.8. Ovozga qo'yilgan masala bo'yicha Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qarori, yig'ilishda ishtirok etayotgan Jamiyat ovoz beruvchi aksiyalari egasi bo'lgan aksiyadorlarning ko'pchilik (oddiy ko'pchilik) ovozi bilan qabul qilinadi, qonun hujjatlarida va Ustavda qaror qabul qilish uchun ovoz berish belgilangan hollar bundan mustasno.

10.9. Quyidagi masalalar bo'yicha qaror Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etayotgan ovoz beruvchi aksiyalarning egalari bo'lgan aksiyadorlarning to'rt dan uch qismidan iborat ko'pchilik (malakali ko'pchilik) ovozi bilan qabul qilinadi:

Jamiyat Ustaviga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish yoki Jamiyatning yangi tahrirdagi ustavini tasdiqlash;

Jamiyatni qayta tashkil etish;

Jamiyatni tugatish, tugatuvchini (tugatish komissiyasini) tayinlash hamda oraliq va yakuniy tugatish balanslarini tasdiqlash;

e'lon qilingan aksiyalarning eng ko'p miqdorini belgilash;

Jamiyat Kuzatuv kengashining o'z vakolat doirasiga kiradigan masalalar yuzasidan, shu jumladan Jamiyatni boshqarishga doir qonun hujjatlarida belgilangan talablarga rioya etilishi yuzasidan Jamiyat Kuzatuv kengashining hisobotlarini eshitish;

qonun hujjatlarida ko'zda tutilgan hollarda Jamiyat tomonidan yirik bitimlar tuzish;

qonun hujjatlarida ko'zda tutilgan hollarda Jamiyat tomonidan affillangan shaxs bilan bitimlarni ma'qullash.

Soliqqa oid davlat oldidagi boshqa qarzdorlik hisobiga Jamiyat ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) davlat ulushini shakllantirish yoki oshirish to'g'risidagi qaror Jamiyat Aksiyadorlari umumiy yig'ilishi tomonidan Jamiyatning joylashtirilgan ovoz beruvchi aksiyalarning kamida uchdan ikki qismi egalari bo'lgan aksiyadorlarning (davlatdan tashqari) roziligi mavjud bo'lgan taqdirda, aksiyadorlarning oddiy ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

10.10. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi kun tartibiga kiritilmagan masalalar bo'yicha qaror qabul qilishga, shuningdek kun tartibiga o'zgartirishlar kiritishga haqli emas.

10.11. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida qabul qilingan qarorlar, shuningdek ovoz berish yakunlari qonunchilikda belgilangan tartib va muddatlarida aksiyadorlar e'tiboriga yetkaziladi.

10.12. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish sanasi va tartibi, yig'ilish o'tkazilishi haqida aksiyadorlarga xabar berish tartibi, aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazishga tayyorgarlik vaqtida aksiyadorlarga beriladigan materiallarning (axborotning) ro'yxati Jamiyat Kuzatuv kengashi tomonidan belgilanadi.

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan sana uni o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilingan kundan e'tiboran o'n kundan kam va o'ttiz kundan ko'p etib belgilanishi mumkin emas.

10.13. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazishga tayyorgarlik ko'rilayotganda Jamiyat Kuzatuv kengashi, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda esa, umumiy yig'ilishni chaqiruvchi shaxslar quyidagilarni belgilaydi:

umumiy yig'ilish o'tkaziladigan sana, vaqt va joyni;

umumiy yig'ilishning kun tartibini;

umumiy yig'ilish o'tkazilishi hakida xabar qilish uchun Jamiyat aksiyadorlarining reyestri shakllantiriladigan sanani;

umumiy yig'ilish o'tkazish uchun Jamiyat aksiyadorlarining reyestri shakllantiriladigan sanani;

umumiy yig'ilish o'tkazilishi haqida aksiyadorlarga xabar qilish tartibini;

umumiy yig'ilishni o'tkazishga tayyorgarlik ko'rilayotganda aksiyadorlarga taqdim etiladigan axborot (materiallar) ro'yxatini;

ovoz berish byulletenining shakli va matnini.

Aniq masala qo'yilishini aks ettirmaydigan ta'riflarning (shu jumladan, «turli masalalar», «boshqa masalalar», «o'zga masalalar» va shu singari ta'riflarning) Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi kun tartibiga kiritilishiga yo'l qo'yilmaydi.

10.14. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish to'g'risidagi xabar Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan sanadan kamida yigirma bir kundan

kechiktirmay, lekin uzog'i bilan o'ttiz kun oldin Korporativ axborotning yagona portalida, Jamiyatning rasmiy veb-saytida va ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinadi, shuningdek aksiyadorlarga elektron pochta orqali yuboriladi.

10.15. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish to'g'risidagi xabarda quyidagilar ko'rsatilishi kerak:

Jamiyatning nomi, joylashgan yeri (pochta manzili) va elektron pochta manzili;

umumiy yig'ilish o'tkaziladigan sana, vaqt va joy;

Jamiyat aksiyadorlarining reyestri shakllantiriladigan sana;

umumiy yig'ilish kun tartibiga kiritilgan masalalar;

umumiy yig'ilishni o'tkazishga tayyorgarlik ko'rilayotganda aksiyadorlarga taqdim etilishi lozim bo'lgan axborot (materiallar) bilan aksiyadorlarni tanishtirish tartibi.

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazishga tayyorgarlik ko'rilayotganda aksiyadorlarga taqdim etilishi lozim bo'lgan axborotga (materiallarga) Jamiyatning yillik hisoboti, Jamiyatning yillik moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish natijalari yuzasidan Jamiyat auditorlik tashkilotining xulosasi, shuningdek Jamiyat Kuzatuv kengashi a'zolariga nomzodlar to'g'risidagi ma'lumotlar, Jamiyat ustaviga kiritiladigan o'zgartirish va qo'shimchalar loyihasi yoki Jamiyatning yangi tahrirdagi ustavi loyihasi hamda Kuzatuv kengashining umumiy yig'ilish kun tartibidagi masala bo'yicha pozitsiyasi yuzasidan ma'lumot kiradi.

10.16. Jamiyat ovoz beruvchi aksiyalarining hammasi bo'lib kamida bir foiziga egalik qiluvchi aksiyadorlar (aksiyador) Jamiyatning moliya yili tugaganidan keyin 90 kundan kechiktirmay, Jamiyat Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi kun tartibiga masalalar kiritishga, foyda taqsimoti, Jamiyat ijro va nazorat organlari a'zolariga nomzodlar bo'yicha taklif kiritishga, shuningdek ularni Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan kunigacha almashtirishiga huquqiga ega.

Aksiyadorlar (aksiyador) Jamiyat Kuzatuv kengashiga o'zlari ko'rsatgan nomzodlar ro'yxatiga Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishi o'tkazilishi to'g'risidagi xabar e'lon qilingan sanadan e'tiboran uch ish kunidan kechiktirmay o'zgartirishlar kiritishga haqli.

Jamiyatning bir foizdan kam bo'lmagan oddiy aksiyalari egalari aksiyadorlar umumiy yig'ilishi kun tartibi, foydani taqsimlash, ijro va nazorat organi a'zolariga ularning nomzodini (umumiy yig'ilish o'tkazilgunga qadar almashtirish imkoniyati bilan) ko'rsatish yuzasidan taklif kiritish huquqiga ega. Bunday takliflar moliya yili tugaganidan keyin 90 kundan kechiktirmay taqdim etilishi lozim.

10.17. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi Jamiyat Kuzatuv kengashining qaroriga ko'ra uning o'z tashabbusi asosida, shuningdek talab taqdim etilgan sanada Jamiyatning ovoz beruvchi aksiyalarining kamida besh foiziga ega bo'lgan aksiyadorning (aksiyadorlarning) yozma talabi bilan o'tkaziladi.

Jamiyat ovoz beruvchi aksiyalarining kamida besh foiziga egalik qiluvchi aksiyadorning (aksiyadorlarning) yozma talabiga ko'ra Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirish Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini o'tkazish haqida yozma talab taqdim etilgan kundan e'tiboran o'ttiz kundan kechiktirmay Jamiyatning Kuzatuv kengashi tomonidan amalga oshiriladi.

Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini o'tkazish to'g'risidagi talabda yig'ilish kun tartibiga kiritilishi kerak bo'lgan masalalar ularni kiritish sabablari ko'rsatilgan holda ta'riflangan bo'lishi kerak.

Jamiyat Kuzatuv kengashi yoki Jamiyat ovoz beruvchi aksiyalarining kamida besh foiziga egalik qiluvchi aksiyadorning (aksiyadorlarning) talabiga ko'ra chaqiriladigan Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi kun tartibidagi masalalarning ta'rifiga o'zgartishlar kiritishga haqli emas.

10.18. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etish huquqi aksiyador tomonidan shaxsan yoki uning vakili orqali amalga oshiriladi.

Aksiyador aksiyadorlarning umumiy yig'ilishidagi o'z vakilini istalgan vaqtda almashtirishga yoki yig'ilishda shaxsan o'zi ishtirok etishga haqlidir.

Aksiyadorning vakili aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida yozma shaklda tuzilgan ishonchnoma asosida ish yuritadi.

Davlat vakilining Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etish huquqi shaxsan uning o'zi tomonidan amalga oshiriladi.

10.19. Agar Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etish uchun ro'yxatdan o'tkazish tugallangan paytda Jamiyatning joylashtirilgan ovoz beruvchi aksiyalarining jami ellik foizidan ko'proq ovoziga ega bo'lgan aksiyadorlar (ularning vakillari) ro'yxatdan o'tgan bo'lsa, Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi vakolatli (kvorumga ega) bo'ladi.

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish uchun kvorum bo'lmasa, Aksiyadorlarning takroriy umumiy yig'ilishini o'tkazish sanasi e'lon qilinadi. Aksiyadorlarning takroriy umumiy yig'ilishini o'tkazishda kun tartibini o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi.

Agar aksiyadorlarning o'tkazilmay qolgan yig'ilishi o'rniga chaqirilgan takroriy umumiy yig'ilishida ishtirok etish uchun ro'yxatdan o'tkazish tugallangan paytda Jamiyatning joylashtirilgan ovoz beruvchi aksiyalarining jami qirq foizidan ko'proq ovoziga ega bo'lgan aksiyadorlar (ularning vakillari) ro'yxatdan o'tgan bo'lsa, Aksiyadorlarning takroriy umumiy yig'ilishi vakolatli bo'ladi.

Aksiyadorlarning takroriy umumiy yig'ilishini o'tkazish to'g'risida xabar qilish qonun hujjatlarida nazarda tutilgan muddatlarda va shaklda amalga oshiriladi.

Kvorum bo'lmaganligi sababli Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish sanasi yigirma kundan kam muddatga ko'chirilgan taqdirda, umumiy yig'ilishda ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan aksiyadorlar o'tkazilmay qolgan umumiy yig'ilishda ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan aksiyadorlarning reyestriga muvofiq aniqlanadi.

10.20. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ovoz berish «Jamiyatning ovoz beruvchi bitta aksiyasi - bitta ovoz» printsipli bo'yicha amalga oshiriladi, Jamiyat Kuzatuv kengashi a'zolarini saylash bo'yicha kumulyativ ovoz berishni o'tkazish hollari bundan mustasno.

10.21. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida kun tartibi masalalari bo'yicha ovoz berish ovoz berish byulletenlari orqali amalga oshiriladi.

Ovoz berish byulletenlarining shakli va matni Jamiyat Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanadi, Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi Jamiyat Kuzatuv kengashi tomonidan chaqirilmagan hollar bundan mustasno. Ovoz berish byulleteni umumiy yig'ilishda ishtirok etish uchun ro'yxatdan o'tgan aksiyadorga (uning vakiliga) beriladi.

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etuvchi shaxsga shunday shaxs hisobidan o'zi to'ldirgan byulleten nusxasini olish imkoni beriladi.

Aksiyadorlar, shu jumladan, minoritar aksiyadorlar ovoz berishda birgalikdagi pozitsiyasini shakllantirish uchun aksiyadorlik bitimini tuzishi mumkin.

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ovozga qo'yilgan, hal qilish chog'ida Jamiyatning oddiy aksiyalari egalari bo'lgan aksiyadorlar ovoz berish huquqiga ega bo'ladigan masala

yuzasidan ovozlarni sanab chiqish ovoz beruvchi aksiyalarning barchasi bo'yicha birgalikda amalga oshiriladi.

Ovozlarni sanab chiqish, Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etishi uchun aksiyadorlarni ro'yxatga olish, shuningdek ovoz berish byulletenlarini tarqatish uchun Jamiyat Kuzatuv kengashi tomonidan sanoq komissiyasi tuzilib, uning a'zolari soni va shaxsiy tarkibi Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlanadi.

Sanoq komissiyasining tarkibi kamida uch kishidan iborat bo'lishi kerak. Sanoq komissiyasi tarkibiga Jamiyat Kuzatuv kengashining a'zolari, Jamiyat Boshqaruv raisi, shuningdek ana shu lavozimlarga nomzodi ko'rsatilgan shaxslar kirishi mumkin emas.

Sanoq komissiyasi Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida kvorum bor yoki yo'qligini aniqlaydi, umumiy yig'ilishda ovoz berish huquqlarining aksiyadorlar (ularning vakillari) tomonidan amalga oshirilishi munosabati bilan yuzaga keladigan masalalarni tushuntiradi, ovozga qo'yiladigan masalalar bo'yicha ovoz berish tartibini tushuntiradi, ovoz berishning belgilangan tartibi va aksiyadorlarning ovoz berishda ishtirok etish huquqlarini ta'minlaydi, ovozlarni sanab chiqadi va ovoz berish yakunlarini chiqaradi.

Ovoz berish yakunlari bo'yicha sanoq komissiyasi ovoz berish yakunlari to'g'risida bayonnoma tuzadi, bayonnoma jumladan aksiyadorlar umumiy yig'ilishining kvorumi mavjudligi to'g'risidagi ma'lumotlarni ham o'z ichiga oladi va sanoq komissiyasining a'zolari tomonidan imzolanadi.

Ovoz berish yakunlari to'g'risida bayonnoma tuzilganidan va Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining bayonnomasi imzolanganidan keyin ovoz berish byulletenlari sanoq komissiyasi tomonidan muhrlanadi hamda saqlab qo'yish uchun Jamiyatning arxiviga topshiriladi.

Ovoz berish yakunlari to'g'risidagi bayonnoma Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining bayonnomasiga qo'shib qo'yilishi lozim.

Ovoz berish yakunlari Aksiyadorlarning ovoz berish o'tkazilgan umumiy yig'ilishida o'qib eshittiriladi, shuningdek Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi yopilganidan keyin ovoz berish yakunlari to'g'risidagi hisobotni e'lon qilish orqali aksiyadorlar e'tiboriga yetkaziladi.

10.22. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining bayonnomasi Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi yopilganidan keyin o'n kundan kechiktirmay ikki nusxada tuziladi. Har ikkala nusxa ham umumiy yig'ilishda raislik qiluvchi va umumiy yig'ilish kotibi tomonidan imzolanadi.

Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining bayonnomasida:

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkazilgan sana, vaqt va joy;

Jamiyatning ovoz beruvchi aksiyalariga egalik qiluvchi aksiyadorlar ega bo'lgan ovozlarning umumiy soni;

umumiy yig'ilishda ishtirok etgan aksiyadorlar ega bo'lgan ovozlarning soni;

umumiy yig'ilishning raisi (rayosat) va kotibi, yig'ilish kun tartibi ko'rsatiladi;

Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining bayonnomasida ma'ruzalarning asosiy qoidalari, ovozga qo'yilgan masalalar hamda ular yuzasidan o'tkazilgan ovoz berish yakunlari, yig'ilish qabul qilgan qarorlar ko'rsatilishi lozim.

10.23. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilingan qarorlar qonun xujjatlarida belgilangan muddatlarda Jamiyat korporativ veb-saytida va Korporativ axborot yagona portalida joylashtiriladi. Agar Jamiyat aksiyalari va boshqa qimmatli qog'ozlari fond birjasining kotirovka varag'iga kiritilgan bo'lsa, mazkur qarorlar birjaning veb-saytida ham joylashtiriladi.

XI. JAMIYAT KUZATUV KENGASHI

11.1. Jamiyat Kuzatuv kengashi Jamiyat faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi, qonun hujjatlari va ushbu Ustav bilan Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi vakolat doirasiga kiritilgan masalalarni hal etish bundan mustasno.

Jamiyat Kuzatuv kengashi qonun hujjatlariga, ushbu Ustavga va Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlangan "Kuzatuv kengashi to'g'risida"gi nizomga muvofiq ish yuritadi.

11.2. Jamiyat Kuzatuv kengashi a'zolarining soni 9 (to'qqiz) kishidan iborat.

Korporativ boshqaruv kodeksida aks ettirilgan mustaqil a'zo mezonlariga muvofiq bo'lgan Kuzatuv Kengashining kamida bir nafar (ammo ustavda ko'zda tutilgan Kuzatuv kengashi a'zolari sonining 15 foizidan kam bo'lmagan) a'zosi yirik aksiyadorlar tomonidan kelishilgan holda tavsiya etiladi va saylanadi. Kuzatuv kengashlari tarkibiga uchdan ikki qismidan iborat mustaqil a'zolari saylash (*korxonalarda mulkdor va tartibga soluvchi funksiyalarni bir vaqtning o'zida bajarish mavjud bo'lgan hollarda, ushbu amaliyot bekor qilingunga qadar belgilanadi*);

11.3. Jamiyat Kuzatuv kengashining vakolatlariga quyidagilar kiradi:

Jamiyatning biznes-rejasi ko'rsatkichlari bajarilishi, shuningdek rivojlantirish strategiyasiga erishish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar to'g'risida Jamiyat ijroiya organining hisobotini muntazam ravishda eshitib borgan holda Jamiyat faoliyatining ustuvor yo'nalishlarini belgilash;

aksiyadorlarning yillik va navbatdan tashqari umumiy yig'ilishlarini chaqirish, qonunchilikda nazarda tutilgan hollar mustasno;

aksiyadorlar umumiy yig'ilishining kun tartibini tayyorlash;

aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan sana, vaqt va joyni belgilash;

aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkazilishi haqida xabar qilish uchun hamda umumiy yig'ilishga qatnashish huquqiga ega bo'lgan jamiyat aksiyadorlarining reyestrini shakllantirish sanasini belgilash;

jamiyat ustaviga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish yoki jamiyatning yangi tahrirdagi ustavini tasdiqlash masalalarini aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi hal qilishi uchun kiritish, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno;

mol-mulkning bozor qiymatini belgilashni tashkil etish;

jamiyatning Boshqaruv a'zolarini saylash (tayinlash), uning vakolatini muddatidan ilgari tugatish;

jamiyat ijroiya organiga to'lanadigan haq va kompensatsiyalarning miqdorlarini belgilash, shuningdek ko'rsatilgan to'lovlarning chegarasi miqdorini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 28.07.2015 yildagi 207-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Davlat ulushi bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlari va boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyati samaradorligini baholash mezonlarini joriy etish to'g'risida"gi qarori bilan belgilangan samaradprlikning muhim ko'rsatkichlariga bog'lash holda belgilash;

Jamiyatning yillik biznes-rejasini joriy yilning 1 dekabridan kechiktirmay tasdiqlash;

korporativ maslahatchini tayinlash va uning faoliyati tartibini belgilovchi nizomni tasdiqlash;

ichki audit xizmatini tashkil etish va uning xodimlarini tayinlash, shuningdek har chorakda uning hisobotlarini eshitib borish;

jamiyat ijroiya organining faoliyatiga daxldor har qanday hujjatlardan erkin foydalanish va jamiyat Kuzatuv kengashi zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun bu hujjatlarni ijroiya organidan olish. Jamiyat Kuzatuv kengashi va uning a'zolari olingan hujjatlardan faqat xizmat maqsadlarida foydalanishi mumkin;

auditorlik tekshiruvini o'tkazish (majburiy auditorlik tekshiruvi bundan mustasno), auditorlik tashkilotini belgilash, uning xizmatlariga to'lanadigan eng ko'p haq miqdori va u bilan shartnoma tuzish (shartnomani bekor qilish) to'g'risida qaror qabul qilish;

dividend miqdori, uni to'lash shakli va tartibi yuzasidan tavsiyalar berish;

jamiyatning zaxira fondidan va boshqa fondlaridan foydalanish;

jamiyatning filiallarini tashkil etish va vakolatxonalarini ochish;

jamiyatning sho'ba va tobe xo'jalik jamiyatlarini tashkil etish;

qonunchilikda belgilangan hollarda Jamiyat tomonidan yirik bitimlar va jamiyat affillangan shaxslari bilan bitimlar tuzish to'g'risida qaror qabul qilish;

jamiyatning tijorat va notijorat tashkilotlardagi ishtiroki bilan bog'liq bitimlarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tuzish.

korporativ obligatsiyalar, shu jumladan, aksiyalarga ayirboshlanadigan obligatsiyalar chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish;

jamiyatning korporativ obligatsiyalarini qaytarib sotib olish to'g'risida qaror qabul qilish;

Jamiyatning ustav fondini (ustav kapitalini) ko'paytirish masalalarini, shuningdek Jamiyatning ustav fondini (ustav kapitalini) ko'paytirish hamda Jamiyatning e'lon qilingan aksiyalari sonini kamaytirish bilan bog'liq Jamiyat ustaviga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi masalalarni hal qilish;

aksiyalarni joylashtirish (qimmatli qog'ozlarning birja bozoriga va uyushgan birjadan tashqari bozoriga chiqarish) narxini belgilash;

qimmatli qog'ozlarning hosilalarini chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish;

qimmatli qog'ozlar chiqarilishi to'g'risidagi qaror va emissiya risolasini tasdiqlash;

avval ro'yxatdan o'tkazilgan qimmatli qog'ozlar chiqarilishlariga o'zgartirish va (yoki) qo'shimchalar kiritish;

Jamiyat asosiy faoliyatiga xos bo'lgan yangi ko'chmas mulk ob'ektlarini sotib olish yoki qurish hamda xo'jalik jamiyatlari ustav kapitalidagi ulushni sotib olish, shuningdek, asosiy faoliyatidan tashqari qo'shimcha faoliyat bilan shug'ullanish maqsadga muvofiqligini ko'rib chiqish va tegishli qaror qabul qilish;

Jamiyat tomonidan mulkni begonalashtirish, uni sotish shakli va mexanizmi, davlat ishtirokidagi korxonalar va ularning tarkibidagi korxonalar ustav kapitaliga uchinchi shaxslar tomonidan investisiya kiritish bo'yicha kelishuvlarini (bitim, shartnoma, memorandum va boshqalar) majburiy tarzda oldindan ko'rib chiqish;

Jamiyatga uchinchi shaxslar tomonidan investisiya kiritish yoki ularning xo'jalik jamiyatlari ustav kapitalida ishtirok etishi, yagona ta'sischi bo'lgan korxonalarni qayta tashkil etish bo'yicha kelishuvlarni hamda yirik ko'chmas mulk ob'ektlarini sotish masalalarini Davaktiv agentligi bilan kelishgan holda amalga oshirish;

Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan va qonunchilikda o'rnatilgan miqdor doirasida hayriya (xomiylik) yoki beg'araz yordamni ko'rsatish (olish) shartlari va tartibini belgilash shuningdek ushbu to'g'risida qarorlar qabul qilish;

homiylilik (xayriya) yoki beg'araz yordam ko'rsatish (olish) to'g'risida qarorlarni faqat aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan belgilangan tartib va shartlar asosida, shuningdek, qonun hujjatlarida belgilangan doirada, bu haqda barcha aksiyadorlar uchun ma'lumotlarni oshkor etgan tarzda qabul qilish;

Kuzatuv kengashi qoshida Kuzatuv kengashi, ijroiya organlari, Jamiyat xodimlari va jalb etilgan ekspertlar (tegishli soha mutaxassislari, soha oliy ta'lim muassasalari o'qituvchilari va

boshqalar)dan iborat tegishli masalalar, shu jumladan, nizoli vaziyatlarni aniqlash va hal etish va boshqa masalalar bo'yicha qo'mitalar tashkil etish;

jamiyatda ichki nazoratning ratsional va samarali tizimi, shu jumladan korruptsiyaga va monopoliyaga qarshi komplayens-nazorat tizimi faoliyati ustidan nazorat;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa masalalarni hal etish.

Jamiyat Kuzatuv kengashi vakolat doirasiga qonun hujjatlariga, ushbu Ustavga va Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlangan "Kuzatuv kengashi to'g'risida"gi nizomga muvofiq boshqa masalalarni hal etish ham kiritilishi mumkin.

Jamiyat Kuzatuv kengashining vakolat doirasiga kiritilgan masalalar hal qilish uchun Jamiyat ijroiya organiga o'tkazilishi mumkin emas.

11.4. Jamiyat Kuzatuv kengashi jamiyat ijroiya organi rahbarining (boshkaruv raisi) va ijroiya organining a'zolarini vakolatlarini agar ular jamiyat ustavini qo'pol tarzda buzsa yoki ularning harakatlari (harakatsizligi) tufayli jamiyatga zarar etkazilgan bo'lsa, muddatidan ilgari tugatishga, va shu tariqa jamiyat Kuzatuv Kengashining qarori bilan belgilangan shaxs uning vazifalarini aksiyadorlarning navbatdagi umumiy yig'ilishigacha bo'lgan davrda vaqtincha bajarib turishiga tayinlash huquqiga ega.

11.5. Jamiyat Kuzatuv Kengashining a'zolari qonun hujjatlarida va jamiyat ustavida nazarda tutilgan tartibda Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan 3 (uch) yil muddatga saylanadi.

Jamiyat Kuzatuv kengashi tarkibiga saylangan shaxslar cheklanmagan tarzda qayta saylanishi mumkin.

Jamiyat boshqaruvi a'zolari jamiyat Kuzatuv Kengashiga saylanishi mumkin emas.

Jamiyatda mehnat shartnomasi (kontrakt) bo'yicha ishlayotgan shaxslar jamiyat Kuzatuv kengashi a'zosi bo'lishi mumkin emas.

Jamiyat Kuzatuv kengashi tarkibiga saylanadigan shaxslarga nisbatan qo'yiladigan talablar Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlanadigan "Kuzatuv kengashi to'g'risida"gi Nizomda belgilab qo'yiladi.

11.6. Kuzatuv kengashi tarkibida Kuzatuv kengashi son tarkibining 15 (o'n besh) foizidan kam bo'lmagan mustaqil a'zo bo'lishi zarur.

Quyidagi shaxslar jamiyat Kuzatuv Kengashining mustaqil a'zosi bo'lishi mumkin:

a) so'nggi uch yil mobaynida jamiyatda va (yoki) uning affillangan shaxslarida ishlamagan shaxs;

b) jamiyatning aksiyadori va (yoki) uning affillangan shaxsining ta'sischisi (aksiyadori, ishtirokchisi) bo'lmagan shaxs;

v) jamiyatning va (yoki) uning affillangan shaxsining yirik mijozi va (yoki) yirik etkazib beruvchisi bilan fuqarolik-huquqiy munosabatlarda bo'lmagan shaxs. Bunda qaysi mijoz va etkazib beruvchi bilan eng kam ish haqining ikki ming baravaridan ko'p bo'lgan summaga teng amaldagi shartnoma mavjud bo'lsa, o'shalar yirik mijoz va yirik etkazib beruvchi deb e'tirof etiladi;

g) jamiyat va (yoki) uning affillangan shaxslari bilan biror-bir kelishuvga ega bo'lmagan shaxs, bundan Kuzatuv kengashi a'zosining vazifalari va funktsiyalari bajarilishini ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan hollar mustasno;

D) jamiyatning boshqaruv va ichki nazorat organlarining va (yoki) uning affillangan shaxslarining a'zosi bo'lgan shaxsning yoki so'nggi uch yil ichida ularga a'zo bo'lgan shaxsning

eri (xotini), ota-onasi (farzandlikka oluvchisi), farzandi (farzandlikka olingan bolasi), tug'ishgan va o'gay akasi (ukasi) hamda opasi (singlisi) bo'lmagan shaxs;

e) davlat boshqaruvi organining yoki davlat korxonasining xodimi bo'lmagan shaxs.

11.7. Jamiyat Kuzatuv kengashi a'zolari saylovi kumulyativ ovoz berish orqali amalga oshiriladi. Kumulyativ ovoz berishda har bir aksiyadorga tegishli ovozlar soni Kuzatuv Kengashiga saylanishi lozim bo'lgan shaxslar soniga ko'paytiriladi va aksiyador shu tariqa olingan ovozlarni bitta nomzodga to'liq berishga yoki ularni ikki va undan ortiq nomzodlar o'rtasida taqsimlashga haqlidir. Eng ko'p ovoz to'plagan nomzodlar jamiyat kuzatuv kengashi tarkibiga saylangan deb hisoblanadi.

11.8. Jamiyat Kuzatuv Kengashining raisi Kuzatuv kengashi a'zolarining umumiy soniga nisbatan ko'pchilik ovoz bilan, ushbu kengash tarkibidan Kuzatuv kengashi a'zolari tomonidan saylanadi.

Jamiyat Kuzatuv kengashi o'z raisini Kuzatuv kengashi a'zolarining umumiy soniga nisbatan ko'pchilik ovoz bilan qayta saylashga haqli.

Jamiyat Kuzatuv Kengashining raisi uning ishini tashkil etadi, Kuzatuv kengashi majlislarini chaqiradi va ularda raislik qiladi, majlislarda bayonnoma yuritilishini tashkil etadi, Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida raislik qiladi.

Jamiyat Kuzatuv Kengashining raisi bo'lmagan taqdirda uning vazifasini Kuzatuv Kengashining a'zolaridan biri amalga oshiradi.

11.9. Jamiyat Kuzatuv Kengashining Majlisi Kuzatuv Kengashining raisi tomonidan uning o'z tashabbusiga ko'ra, jamiyat Kuzatuv kengashi, boshqaruv raisining hamda jamiyatning aksiyalarning hammasi bo'lib kamida bir foiziga egalik qiluvchi aksiyador (aksiyadorlar) talabiga ko'ra chaqiriladi.

Jamiyat Kuzatuv Kengashining majlisini o'tkazish uchun jamiyat Kuzatuv Kengashiga saylangan a'zolarining etmish besh foizidan kam bo'lmashligi kerak.

Jamiyat Kuzatuv kengashi a'zolarining soni jamiyat Ustavida nazarda tutilgan miqdorning etmish besh foizidan kam bo'lgan taqdirda, jamiyat Kuzatuv Kengashining yangi tarkibini saylash uchun Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirishi shart. Kuzatuv Kengashining qolgan a'zolari Aksiyadorlarning bunday navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risida qaror qabul qilishga, shuningdek jamiyat boshqaruvi raisining vakolatlari muddatidan ilgari tugatilgan taqdirda, uning vazifasini vaqtincha bajaruvchini tayinlashga haqlidir.

Kuzatuv kengashi majlislari uning raisi tomonidan har chorakda kamida bir marta chaqiriladi va o'tkaziladi.

Jamiyatning 1 foizdan kam bo'lmagan oddiy aksiyalari egalari Kuzatuv kengashi majlisini chaqirishni talab qilish va kun tartibi yuzasidan taklif kiritish huquqiga ega

11.10. Jamiyat Kuzatuv Kengashining majlisida qarorlar, agar Kuzatuv Kengashining majlisini chaqirish va o'tkazish tartibini belgilovchi qonun hujjatlarida, jamiyat Ustavida o'zgacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, majlisda hozir bo'lganlarning ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

Quyidagi masalalar bo'yicha qaror jamiyat Kuzatuv kengashi tomonidan bir ovozdan qabul qilinadi:

Jamiyat ustav fondini qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish yo'li bilan ko'paytirish;

Jamiyat tomonidan aksiyalarga ayirboshlanadigan korporativ obligasiyalarni chiqarish;

Jamiyat tomonidan yirik bitimlar tuzish;

Jamiyat tomonidan affillangan shaxslar bilan bitimlar tuzish.

11.11. Jamiyat Kuzatuv kengashi majlisida masalalar hal etilayotganda Kuzatuv Kengashining har bir a'zosi bitta ovozga ega.

Jamiyat Kuzatuv Kengashining bir a'zosi o'z ovozi Kuzatuv Kengashining boshqa a'zosiga berishiga yo'l ko'yilmaydi.

Jamiyat Kuzatuv kengashi a'zolarining ovozlari teng bo'lgan taqdirda Kuzatuv kengashi tomonidan qaror qabul qilishda jamiyat Kuzatuv kengashi raisining ovozi hal qiluvchi ovoz hisoblanadi.

11.12. Ijro etuvchi organining hisobotini har chorakda kamida bir marta Kuzatuv Kengashining majlislarida, shu jumladan, videokonferentsaloqa tizimi orqali va elektron ovoz (e-VOTE) berish yo'li bilan o'tkaziladigan majlislarda eshitiladi. Kuzatuv Kengashining majlislarini sirdan ovoz berish yo'li bilan (so'rov yo'li bilan) o'tkazishga yo'l qo'yilmaydi.

11.13. Majlisda Kuzatuv kengashi a'zolari video va audio uskunalari orqali konferentsiya aloqasi bo'yicha ishtirok etishi mumkin, bunda ularning ovozlari qaror qabul qilish uchun sirdan berilgan deb hisoblanmaydi.

11.14 Jamiyat Kuzatuv Kengashining majlisida bayonnoma yuritiladi. Kuzatuv Kengashining bayonnomasi Majlis o'tkazilganidan so'ng 10 kundan kechiktirmay tuziladi. Majlis bayonnomasida quyidagilar ko'rsatiladi:

Majlis o'tkazilgan sana, vaqt va joy;

majlisda hozir bo'lgan shaxslar;

Majlisning kun tartibi;

ovoz berishga qo'yilgan masalalar, ular yuzasidan o'tkazilgan ovoz berish yakunlari;

qabul qilingan qarorlar.

Jamiyat Kuzatuv kengashi Majlisining bayonnomasi majlisda ishtirok etayotgan jamiyat Kuzatuv kengashi a'zolari tomonidan imzolaniadi, ular Majlisning bayonnomasi to'g'ri rasmiylashtirilishi uchun javobgar bo'ladi.

11.15. Jamiyat Kuzatuv kengashi Majlisining bayonnomasi imzolangan kuni jamiyatning ijroiya organiga ijro etish uchun topshiriladi. Kuzatuv kengashi Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risida qaror qabul qilgan taqdirda, mazkur qaror haqidagi axborot ijroiya organiga Kuzatuv Kengashining Majlisi o'tkaziladigan kuni topshiriladi.

XII. JAMIYATNING IJROIYA ORGANI

12.1. Jamiyatning joriy faoliyati ustidan raxbarlik kollegial ijroiya organi (boshqaruv) tomonidan amalga oshiriladi. Jamiyat boshqaruvi aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan 3 yilga saylangan 5 (besh) kishidan iboratdir. Boshqaruv ishiga boshqaruv raisi rahbarlik qiladi. Ijroiya organi rahbari sifatida tayinlangan (qayta tayinlangan) shaxs surunkasiga ikki muddatdan ortiq ijro organi rahbari bo'lishi mumkin emas.

Jamiyat boshqaruvi qonun hujjatlari, ushbu ustav va Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlangan "Ijroiya organi to'g'risida"gi Nizom asosida ish yuritadi.

Boshqaruv raisi, boshqaruv a'zolarini saylash (tayinlash), chet ellik menejerlar ishtirok etishi mumkin bo'lgan tanlov bo'yicha saralash asosida amalga oshiriladi.

Aksiyadorlar vakili sifatida ishtirok etuvchi ijroiya organi vakillarining ijroiya organiga a'zolar saylash masalasi bo'yicha ovoz berishda qatnashmaydi.

12.2. Boshqaruvning vakolatlariga jamiyatning joriy faoliyatiga raxbarlik qilishga doir barcha masalalar kiradi, aksiyadorlar umumiy yig'ilishi yoki Kuzatuv Kengashining mutlaq vakolatlariga kiritilgan masalalar bundan mustasno.

Boshqaruv aksiyadorlar umumiy yig'ilishi va Kuzatuv kengashi qarorlarining bajarilishini tashkillashtiradi.

12.3. Jamiyat boshqaruvi raisi jamiyatning kundalik faoliyatiga rahbarlikni amalga oshiradi, jamiyat nomidan ishonchnomasiz ish yuritadi, shu jumladan uning manfaatlarini ifodalaydi va davlat muassasalarida, mulkchilikning turli shaklidagi korxonalar va tashkilotlarda jamiyat huquqlarini himoya qiladi.

12.4 Jamiyat boshqaruvi raisi vakolatiga quyidagilar kiradi:

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi va jamiyat Kuzatuv kengashi qarorlarining ijro etilishini tashkil etadi;

Jamiyat Kuzatuv Kengashiga ko'rib chiqish uchun jamiyat vakolat doirasiga kiradigan masalalar yuzasidan qonun hujjatlari va boshqa me'yoriy hujjatlar loyihalarini o'rnatilgan tartibda kiritadi;

aksiyadorlarning amaldagi qonun hujjatlarida ko'zda tutilgan axborot olish, Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etish, dividendlar to'lovi bo'yicha barcha huquqlariga amal qilinishini ta'minlaydi;

Jamiyat mol-mulki va pul mablag'larini qonun hujjatlarida va jamiyat ichki me'yoriy hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda tasarruf qiladi;

Jamiyat nomidan shartnomalar, kontraktlar va boshqa bitimlar tuzadi;

Jamiyat nomidan ishonchnomalar beradi;

O'zbekiston Respublikasi banklarida hisob raqami va boshqa hisoblarni ochadi, jamiyatning hisob-kitob hujjatlari va hisobotlarini imzolaydi;

Jamiyatda buxgalteriya hisobining tashkil etilishi, holati va ishonchligi, tegishli organlarga har yilgi hisobot va boshqa moliyaviy hisobotlar, shuningdek jamiyatning rasmiy veb-saytida va ommaviy axborot vositalarida aksiyadorlarga, kreditorlarga jamiyat faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlar o'z vaqtida taqdim etilishini ta'minlaydi;

davlat statistika hisoboti va buxgalteriya xisobotini tegishli organlarga to'liq va o'z vaqtida taqdim etilishini ta'minlaydi;

Shtatlarni tasdiqlaydi, ularni malakali kadrlar bilan to'liqligini ta'minlaydi,

xodimlar bilan mehnat shartnomalari (kontraktlar) tuzadi va ularni tugatish (bekor qilish) to'g'risida qaror qabul qiladi;

rais o'rinbosarlari va boshqaruv a'zolari o'rtasida vazifalarni taqsimlaydi, jamiyat faoliyatiga oid masalalarni hal qilishda ularning vakolatlarini belgilaydi;

Jamiyatning filiali yoki vakolatxonasi rahbarini tayinlaydi;

Jamiyatning barcha mansabdor shaxslari va xodimlari bajarishi shart bo'lgan buyruqlar, farmoyishlar, ko'rsatmalarni chiqaradi, shuningdek o'zining vakolati doirasiga kiruvchi masalalarga oid yo'riqnomalar va boshqa ichki hujjatlarni tasdiqlaydi;

Jamiyat boshqarmalari va tarkibiy bo'linmalari nizomlarini tasdiqlaydi;

Jamiyat xodimlariga nisbatan amaldagi qonunchilikda ko'zda tutilgan intizomiy jazo choralarini qo'llaydi;

xodimlarni mukofotlash to'g'risidagi nizomni tasdiqlaydi, lavozim ish haqlari, ularga ustamalarni, turli qo'shimcha to'lovlarni belgilaydi, jamiyat xodimlarini rag'batlantiradi,

shuningdek, jamiyat xodimlarini ijtimoiy himoyalash maqsadida kompensasiya to'lovlarini o'rnatadi;

homiylikka sarflanadigan har yilgi xarajatlari o'tgan yilda olingan sof foydaning 3 foizidan oshmasligi kerak hamda bu xarajatlar jamiyatning biznes-rejasining o'tgan hisobot davridagi sof foydaga taalluqli qismi ko'rsatkichlari bajarilganda amalga oshiriladi (bundan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari va topshiriqlari nazarda tutilgan hollar mustasno);

jamiyatda buxgalteriya hisobi yuritilishini tashkil etish, shu jumladan e'lon qilish maqsadida moliyaviy hisobotlar xalqaro standartlariga transformasiyasini ta'minlash;

qonun hujjatlariga muvofiq jamiyat faoliyatiga doir ma'lumotlarni oshkor qilish;

jamiyat arxivi ishini tashkil etish va undagi hujjatlar butligini ta'minlash;

amaldagi qonun hujjatlariga hamda jamiyat ichki hujjatlariga rioya qilish;

jamiyat tomonidan mol-mulkni olish yoki uni boshqa shaxsga berish yoxud mol-mulkni boshqa shaxsga berish ehtimoli bilan bog'liq bitim yoki o'zaro bog'langan bir nechta bitimlar bo'yicha qaror qabul qilish, agar boshqa shaxsga berilayotgan mol-mulkning yoki olinayotgan mol-mulkning balans qiymati bunday bitimlarni tuzish to'g'risidagi qaror qabul qilinayotgan sanadan oldingi hisobot sanasiga tuzilgan moliyaviy hisobot bo'yicha jamiyat sof aktivlari miqdorining 15 foizigacha tashkil etsa, aksiyalarni va boshqa qimmatli qog'ozlarni joylashtirish bilan bog'liq bo'lgan bitimlar bundan mustasno;

jamiyatda ichki nazorat va xatarlarni boshqarish bo'yicha, shuningdek korrupsiyaga qarshi va monopoliyaga qarshi kompalaens nazorati tizimini o'z ichiga olgan bo'yicha oqilona va samarali tizimni tashkil qiladi;

korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga muvofiq korrupsiya va boshqa huquqbuzarliklarning oldini olish bo'yicha choralar ko'radi, shuningdek ularni sodir etish uchun qulay bo'lgan sabablar va sharoitlarni aniqlash, tahlil va bartaraf qilish choralari ko'radi;

jamiyat mansabdor shaxslari va xodimlari tomonidan korrupsiyaga qarshi siyosat va jamiyatning korporativ axloq kodeksi talablariga rioya etishini ta'minlaydi;

monopoliyaga qarshi qonun hujjatlari talablariga muvofiq huquqbuzarliklarning oldini olish choralari ko'radi;

jamiyat mansabdor shaxslari va xodimlari tomonidan jamiyatning monopoliyaga qarshi siyosati talablarini bajarishini ta'minlaydi;

jamiyat, boshqaruv va nazorat organlari a'zolari, mansabdor shaxslar va xodimlar, mijozlar, kreditorlar, sheriklar va boshqa manfaatdor shaxslar o'rtasida manfaatlar to'qnashuvining oldini olish bo'yicha choralar ko'radi;

Qonun hujjatlari, ushbu ustav va "Ijroiya organi (boshqaruv) to'g'risida"gi Nizomga muvofiq boshqaruv raisi vakolatiga kiruvchi boshqa masalalarni hal etadi.

12.5. Boshqaruv raisi quyidagilarga haqli:

o'z vakolatiga tegishli masalalar bo'yicha mustaqil ravishda qarorlar qabul qiladi;

Jamiyat nomidan ishonchnomasiz ish yuritadi, boshqa tashkilotlar va organlar bilan o'zaro munosabatlarda uning manfaatlarini ifodalaydi;

Jamiyat Kuzatuv Kengashining roziligiga ko'ra uning ishida maslahat ovozi bilan ishtirok etadi;

Jamiyat Kuzatuv Kengashining roziligiga ko'ra boshqa tashkilotlarning boshqaruv organlarida lavozimga ega bo'lishi mumkin;

haq olish;

Boshqaruv raisi boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

12.6. Boshqaruv raisining majburiyatlari:

Jamiyat manfaatlarini ko'zlab ish tutish;

o'z majburiyatlarini u bilan tuzilgan mehnat shartnomasi shartlariga muvofiq tegishli tarzda bajarish;

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi va jamiyat Kuzatuv kengashi qarorlarining bajarilishini nazorat qilish;

Jamiyatning yillik biznes-rejasi ko'rsatkichlarining bajarilishini ta'minlash;

Jamiyat Kuzatuv kengashi va Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi oldida hisobot berish; aksiyadorlarning amaldagi qonun hujjatlarida ko'zda tutilgan axborotlarni olish, Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishlarida ishtirok etish, dividendlar hisoblash va to'lash bo'yicha barcha huquqlariga rioya etilishini nazorat qilish;

qonun hujjatlarida belgilangan tartibda jamiyat faoliyati to'g'risidagi axborotni tegishli tarzda oshkor etilishini nazorat qilish;

Jamiyatning moliya-xo'jalik faoliyati to'g'risidagi hujjatlarni jamiyatning Kuzatuv kengashi yoki jamiyat auditori talabiga ko'ra taqdim etilishini ta'minlaydi;

Boshqaruv yig'ilishlarini o'tkazishni tashkil etish;

Jamiyat tarkibiy tuzilmalarining samarali hamkorlik yuritishini ta'minlash;

Jamiyat shartnoma majburiyatlarining bajarilishini ta'minlash;

Jamiyatda buxgalteriya hisobining tashkil etilishi, holati va ishonchliligi, tegishli organlarga yillik hisobot va boshqa moliyaviy hisobotlar o'z vaqtida taqdim etilishi yuzasidan nazoratni amalga oshirish;

davlat statistika hisoboti va buxgalteriya hisobotini tegishli organlarga to'liq va o'z vaqtida taqdim etilishi yuzasidan nazoratni amalga oshirish;

Jamiyatning tijorat sirini tashkil etuvchi axborotning saqlanishini ta'minlash;

Jamiyat faoliyati to'g'risidagi maxfiy axborotni oshkor qilmaslik;

Jamiyatni malakali kadrlar bilan ta'minlash, jamiyat xodimlarining bilimi, malakasi, tajribasi va qobiliyatlaridan eng yaxshi foydalanish choralarini ko'rish;

qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mehnat munosabatlari bilan bog'liq masalalarning hal etilishini ta'minlash;

Jamiyat faoliyatida qonun hujjatlari, ushbu ustav, "Ijroiya organi (boshqaruv) to'g'risida"gi Nizom va jamiyatning boshqa ichki hujjatlari talablariga rioya etish;

jamiyat asosiy faoliyatiga xos bo'lgan yangi ko'chmas mulk ob'ektlarini sotib olish yoki qurish hamda xo'jalik jamiyatlari ustav kapitalidagi ulushni sotib olish, shuningdek, asosiy faoliyatidan tashqari qo'shimcha faoliyat bilan shug'ullanishni faqat Kuzatuv Kengashining tegishli qarori qabul qilinganda amalga oshirish;

jamiyat mulkini begonalashtirishni, uni sotish shakli va mexanizmini, davlat ishtirokidagi korxonalar va ularning tarkibidagi korxonalar ustav kapitaliga uchinchi shaxslar tomonidan investisiya kiritish bo'yicha kelishuvlarini (bitim, shartnoma, memorandum va boshqalar) majburiy tarzda oldindan Kuzatuv kengashi bilan kelishish;

jamiyatga uchinchi shaxslar tomonidan investisiya kiritish yoki ularning xo'jalik jamiyatlari ustav kapitalida ishtirok etishi, yagona ta'sischi bo'lgan korxonalarni qayta tashkil etish bo'yicha kelishuvlarni hamda yirik ko'chmas mulk ob'ektlarini sotish masalalarini Davaktiv agentligi bilan kelishgan holda amalga oshirish;

Jamiyatning korrupsiyaga qarshi siyosatiga rioya etish;

Jamiyatning monopoliyaga qarshi siyosatiga rioya etish;

Jamiyatda qabul qilingan, ijro etuvchi organ a'zolarining jamiyat nazorati organlari, Kuzatuv kengashi, jamiyat mansabdor shaxslari va xodimlari bilan to'g'ri munosabatda bo'lishini, korrupsiya va poraxo'rlikka qarshi kurashni nazarda tutuvchi korporativ axloq kodeksiga rioya etish.

Boshqaruv raisi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlarga ega bo'lishi mumkin.

12.7. Boshqaruv raisi har chorakda jamiyat Kuzatuv kengashi oldida jamiyatning yillik biznes-rejasini bajarish qanday borayotganligi yuzasidan hisobot beradi.

Boshqaruv raisi Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishida moliya yili yakunlariga ko'ra jamiyatning moliya-xo'jalik faoliyati natijalari to'g'risida hisobot beradi.

12.8. Jamiyat boshqaruvining majlisida bayonnoma yuritiladi. Jamiyat boshqaruvi Majlisining bayonnomasi Kuzatuv Kengashining a'zolari talabiga ko'ra ularga beriladi.

Jamiyat boshqaruvi majlislarini o'tkazishni boshqaruv raisi tashkil etadi, u jamiyat nomidan barcha hujjatlarni hamda jamiyat boshqaruvi Majlisi bayonnomalarini imzolaydi.

12.9. Jamiyatning boshqaruv raisini saylash va uning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qaroriga ko'ra amalga oshiriladi.

Jamiyatning boshqaruv a'zolarini saylash va ularning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish Kuzatuv kengashi qaroriga ko'ra amalga oshiriladi.

12.10. Boshqaruv raisi va boshqaruv a'zolarining huquq va majburiyatlari tegishincha qonun hujjatlarida, jamiyat Ustavida hamda ularning har biri jamiyat bilan uch yil muddatga tuzadigan shartnomada belgilanib, shartnomaning amal qilish muddatini uzaytirish yoki uni bekor qilish mumkinligi to'g'risida har uch yilda qaror qabul qilinadi. Boshqaruv raisi va boshqaruv a'zolarining harakati (harakatsizligi) natijasida korxonada manfaatlariga etkazilgan har qanday zarar, ziyon, ularning oqibatida yuzaga keluvchi jarima, penya va boshqa majburiy to'lovlar uchun ushbu shaxslarning subsidiar javobgarligini ular bilan tuziladigan mehnat shartnomalarida qat'iy belgilanadi.

Shartnoma jamiyat nomidan jamiyat Kuzatuv Kengashining raisi yoki Kuzatuv kengashi vakolat bergan shaxs tomonidan imzolanadi. Jamiyat boshqaruvi raisi bilan tuziladigan shartnomada uning jamiyat faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha majburiyatlari hamda jamiyatning yillik biznes-rejasini bajarish qanday borayotganligi yuzasidan Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi va jamiyat Kuzatuv kengashi oldida beradigan hisobotlarining davriyligi nazarda tutilishi kerak.

Boshqaruv raisi va boshqaruv a'zolarining javobgarligi sug'urtalanadi.

12.11. Jamiyat Kuzatuv kengashi boshqaruv raisi va boshqaruv a'zolari bilan tuzilgan shartnomani, agar ular jamiyat Ustavini qo'pol tarzda buzsa yoki ularning harakatlari (harakatsizligi) tufayli jamiyatga zarar etkazilgan bo'lsa, muddatidan ilgari tugatish (bekor qilish) huquqiga ega.

12.12. Jamiyatning boshqaruv raisiga, boshqaruv a'zolariga to'lanadigan haq miqdori jamiyat faoliyatining samaradorligiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'ladi va shartnomada belgilanadi.

XIII. JAMIYAT KUZATUV KENGASHI A'ZOLARINING, BOSHQARUV RAISINING VA BOSHQARUV A'ZOLARINING JAVOBGARLIGI

13.1. Jamiyat Kuzatuv Kengashining a'zolari, boshqaruv raisi va boshqaruv a'zolari o'z huquqlarini amalga oshirishda va o'z majburiyatlarini bajarishda jamiyatning manfaatlarini ko'zlab ish tutishi hamda belgilangan tartibda javobgar bo'lishi lozim.

Agar bir nechta shaxs javobgar bo'lsa, ularning jamiyat oldidagi javobgarligi solidar

javobgarlik bo'ladi.

13.2. Jamiyatga zarar yetkazilishiga sabab bo'lgan qarorga ovoz berishda ishtirok etmagan yoki ushbu qarorga qarshi ovoz bergan jamiyat Kuzatuv kengashi a'zolari, boshqaruv raisi va boshqaruv a'zolari javobgar bo'lmaydi.

13.3. Jamiyat yoki u joylashtirgan aksiyalarning hammasi bo'lib kamida bir foiziga egalik qiluvchi aksiyador (aksiyadorlar) jamiyatga yetkazilgan zararlarning o'rnini qoplash to'g'risidagi da'vo bilan jamiyat Kuzatuv kengashi a'zosi, boshqaruv raisi yoki boshqaruv a'zosi ustidan sudga murojaat qilishga haqli.

13.4. Kuzatuv kengashi va uning raisi o'z huquqlarini amalga oshirishda va o'z majburiyatlarini bajarishda jamiyat manfaatlarini ko'zlab ish tutishi lozim. Ular qonun hujjatlariga va ushbu Ustavga muvofiq jamiyat va uning aksiyadorlari oldida javobgardir.

13.5. Boshqaruv va uning raisi o'z huquqlarini va majburiyatlarini bajarishda jamiyat manfaatlarini ko'zlab ish tutishi lozim.

Ular qonun hujjatlariga va ushbu Ustavga muvofiq jamiyat va uning aksiyadorlari oldida javobgardir.

XIV. JAMIYAT KUZATUV KENGASHI A'ZOLARINING HAMDA BOSHQARUV A'ZOLARINING FIDUTSIAR MAJBURIYATLARI

14.1. Kuzatuv kengashi a'zolarining fidutsiar majburiyatlari:

vazifa va majburiyatlarini amalga oshirishda vijdonan harakat qilib, jamiyat va aksiyadorlar manfaatlarini eng ko'p aks ettiruvchi usullardan foydalanish;

o'z vazifalarini bajarish bilan bog'liq qarorlar qabul qilish evaziga moddiy qimmatliklar olmaslikni yoki bundan manfaatdor bo'lgan shaxslardan mulkiy manfaatdor bo'lmaslik;

Qonunchilikda, jamiyat ustavida va ichki hujjatlarida jamiyat Kuzatuv kengashi a'zolarining boshqa fidutsiar majburiyatlari belgilanishi mumkin.

14.2. Boshqaruv a'zolarining fidutsiar majburiyatlari quyidagilarni:

vazifa va majburiyatlarini amalga oshirishda vijdonan harakat qilib, jamiyat va aksiyadorlar manfaatlarini eng ko'p aks ettiruvchi usullardan foydalanish;

jamiyat mol-mulkidan jamiyatning ustaviga va ichki hujjatlariga zid ravishda va (yoki) aksiyadorlar umumiy yig'ilishining va (yoki) Kuzatuv kengashining qarorlarisiz, shaxsiy manfaatlarini ko'zlab foydalanmaslikni hamda undan boshqa shaxslar tomonidan shu tarzda foydalanilishiga yo'l qo'ymaslik;

jamiyatning biznes imkoniyatlaridan yoki jamiyat uchun manfaatli bo'lgan obyektlardan o'z vazifalarini bajarishi munosabati bilan yoki o'z mavqeyidan kelib chiqqan holda, jamiyatning tegishli boshqaruv organlari roziligisiz, shaxsiy naf olish maqsadida yoki boshqa shaxslar manfaatlarini ko'zlab, shunday naf olishga ko'maklashish maqsadida foydalanmaslik;

jamiyatning asosiy faoliyati yo'nalishlariga xos bo'lgan sohadagi tadbirkorlik faoliyatini jamiyatning tegishli boshqaruv organlari roziligisiz amalga oshirmaslik;

qonunchilikka, jamiyatning ichki hujjatlariga va shartnomaga muvofiq jamiyat faoliyati to'g'risidagi maxfiy axborotni oshkor qilmaslik;

o'z vazifalarini bajarish bilan bog'liq qarorlar qabul qilish evaziga moddiy qimmatliklar olmaslikni yoki bundan manfaatdor bo'lgan shaxslardan mulkiy manfaatdor bo'lmaslik.

Kuzatuv kengashi a'zolari, Boshqaruv a'zolari fidutsiar majburiyatlarni bajarmaslik natijasida jamiyatga yetkazilgan zarar uchun javobgar bo'ladi.

Qonunchilikda, jamiyat ustavida va ichki hujjatlarida jamiyat Boshqaruv a'zolarining boshqa fidutsiar majburiyatlari belgilanishi mumkin.

XV. JAMIYATNING MOLIYA-XO‘JALIK FAOLIYATINI NAZORAT QILISH

a) Ichki audit xizmati

15.1. Jamiyat aktivlarining balans qiymati eng kam ish haqi miqdorining yuz ming barobaridan ko‘p bo‘lgan taqdirda jamiyatda ichki audit xizmati tashkil etiladi. Ichki audit xizmati jamiyatning Kuzatuv Kengashiga hisobdordir.

15.2. Jamiyatning ichki audit xizmati quyidagilarni tekshirish hamda monitoring olib borish orqali jamiyat boshqaruvi, filiallari va vakolatxonalari ishini nazorat qiladi hamda baholaydi:

Jamiyatning boshqaruvi, filiallari va vakolatxonalari tomonidan qonun hujjatlariga, jamiyat Ustaviga va boshqa hujjatlarga rioya etilishini;

Jamiyatning buxgalteriya hisobida va moliyaviy hisobotlarda ma’lumotlarning to‘liq hamda ishonchli tarzda aks ettirilishi ta’minlanishini;

Jamiyatning xo‘jalik operasialarini amalga oshirishning belgilangan qoidalari va tartib-taomillariga rioya etilishini;

Jamiyat aktivlarning saqlanishini, ustav kapitalidagi 50 foiz ulush jamiyatga tegishli bo‘lgan yuridik shaxslar bilan o‘tkazilgan operasialarni, shuningdek jamiyatni boshqarish yuzasidan qonun hujjatlarida belgilangan talablarga rioya etilishini.

15.3. Jamiyatning ichki audit xizmati o‘z faoliyatini qonun hujjatlarida, ushbu ustav va Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi tomonidan tasdiqlanadigan “Jamiyat ichki audit xizmati to‘g‘risida”gi Nizomga muvofiq amalga oshiradi.

b) Auditorlik tashkiloti (tashqi auditor)

15.4. Auditorlik tashkiloti jamiyat bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq qonun hujjatlarida belgilangan tartibda jamiyatning moliya-xo‘jalik faoliyatining tekshirilishini amalga oshiradi va unga auditorlik xulosasi taqdim etadi.

15.5. Auditorlik tashkiloti jamiyatning moliyaviy hisoboti va moliyaga doir boshqa axborot haqida noto‘g‘ri xulosani o‘z ichiga olgan auditorlik xulosasi tuzilganligi oqibatida etkazilgan zarar uchun jamiyat oldida javobgar bo‘ladi.

15.6. Jamiyatda auditorlik tekshiruvi o‘tkazish uchun auditorlik tashkilotini tanlash O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi hamda O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilanadigan ro‘yxatdan kelib chiqqan holda tanlov asosida amalga oshiriladi.

d) Jamiyatning korporativ maslahatchisi

15.7. Jamiyatda Kuzatuv Kengashiga hisobdor bo‘lgan va korporativ qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan nazorat qilish vazifasini bajaruvchi jamiyat korporativ maslahatchisi lavozimi joriy etiladi.

15.8. Jamiyat korporativ maslahatchisining faoliyati jamiyat Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan Nizom asosida amalga oshiriladi.

XVI. JAMIYATNING YILLIK HISOBOTLARINI TUZISH, TEKSHIRISH VA TASDIQLASH TARTIBI

16.1. Jamiyat qonun hujjatlarida belgilangan tartibda buxgalteriya hisobini yuritishi va moliyaviy hisobot taqdim etishi shart.

Jamiyatda buxgalteriya hisobining tashkil etilishi, holati va ishonchliligi, tegishli organlarga har yilgi hisobot va boshqa moliyaviy hisobotlar, shuningdek jamiyatning rasmiy veb-saytida va ommaviy axborot vositalarida aksiyadorlarga, kreditorlarga taqdim etiladigan jamiyat

faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlar o'z vaqtida taqdim etilishi uchun javobgarlik jamiyat boshqaruvi raisining zimmasida bo'ladi.

16.2. Jamiyatning moliyaviy hisobotida ko'rsatilgan va Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishiga taqdim etiladigan yillik hisobotdagi, buxgalteriya balansidagi, foyda va zararlar hisobvarag'idagi ma'lumotlarning ishonchliligi mulkiy manfaatlari jamiyat yoki uning aksiyadorlari bilan bog'liq bo'lmagan auditorlik tashkiloti tomonidan tasdiqlangan bo'lishi kerak.

Jamiyat xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga muvofiq tuzilgan yillik moliyaviy hisobotni u xalqaro audit standartlariga muvofiq tashqi auditdan o'tkazilganidan keyin, Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan sanadan kamida ikki hafta oldin e'lon qiladi.

16.3. Jamiyatning yillik hisoboti aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan sanadan o'n kundan kechiktirmay jamiyatning Kuzatuv kengashi tomonidan dastlabki tarzda tasdiqlanishi lozim.

15.4. Jamiyatning moliya yili 1 yanvardan boshlanadi va 31 dekabrda tugaydi.

XVII. JAMIYATNI QAYTA TASHKIL ETISH VA TUGATISH

17.1. Jamiyatni qayta tashkil etish va tugatish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

XVIII. YAKUNIY QOIDALAR


18.1. Ushbu Ustavning holatlari bo'yicha kelib chiqadigan barcha nizo va kelishmovchiliklar muzokaralar yo'li bilan hal qilinadi. Nizo va kelishmovchiliklarni muzokaralar yo'li bilan hal qilish imkoniyati bo'lmagan taqdirda, ular tegishli ravishda sud orqali hal qilinadi.

18.2. Ushbu Ustavda aks ettirilmagan masalalar O'zbekiston Respublikasining «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi Qonuni va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi.

18.3. Qimmatli qog'ozlar bozori sohasidagi qonun hujjatlariga Ushbu Ustavning holatlariga zid keluvchi o'zgartirishlar kiritilgan hollarda, amaldagi qonun hujjatlari me'yorlari qo'llaniladi.

18.4. Ushbu Ustav O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida belgilangan tartibda davlat ro'yxatiga olingan vaqtdan boshlab kuchga kiradi




A.B.Xusanov